TARBIYA 5

BAXT VA MUVAFFAQIYAT SIRLARI

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining
5-sinf o‘quvchilari uchun darslik

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi
tomonidan tavsiya etilgan



G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent — 2020

UO‘K 17(075.3)
KBK 87.7ya72
T 23

**Muhammadjon Quronov, Yuliya Risyukova, Oksana Tigay,
Olesya Usmanova, Sanjar Xafizov**

Mas’ul muharrir

Dilshod Kenjayev – tarix fanlari nomzodi.

Taqrizchilar:

A. Tagayev – Xalq ta’limi vazirligi, Ma’naviy-axloqiy tarbiya boshqarmasi boshlig‘i, tarix fanlari nomzodi;

Sh. Akramova – O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti kafedra mudiri, pedagogika fanlari doktori, dotsent;

S. Hasanova – Xalq ta’limi vazirligi tasarrufidagi Profilli mehnat ta’limiga ixtisoslashtirilgan Davlat umumta’lim maktabi o‘qituvchisi;

A. Askarov – Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti kafedra mudiri, pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Z. Jabborova – Respublika ta’lim markazi metodisti;

N. Rustamov – Toshkent shahar Olmazor tumani 24-maktab o‘qituvchisi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi hamda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining tegishli xulosalari asosida nashrga tayyorlandi.

M. Quronov va b.

Tarbiya, 5-sinf. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinf o‘quvchilari uchun darslik . – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. – 112 b.

ISNB 978-9943-6447-6-2

UO‘K 17(075.3)
KBK 87.7ya72

Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan chop etildi.

© M. Quronov va b.
© G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020

ISNB 978-9943-6447-6-2

Aziz o‘quvchi!

Bilimli o‘quvchini hamma yaxshi ko‘radi. Siz mehnatsevar, bilimli hamda o‘z kasbingizning mohir mutaxassisi bo‘lib, O‘zbekistonning rivojlanishi va yanada yuksalishi uchun juda katta hissa qo‘shasiz.

“Tarbiya” darsligi – sizning do‘stingiz. U sizga ona Vatanni sevishni, ustozlarni, ota-onani, qarindoshlarni, do‘stlarni hurmat qilishni o‘rgatadi. Sahifalarini bir-bir varaqlar ekansiz, har bir ishni puxta, tadbirkorlik bilan bajarishni, buning uchun irodani qanday kuchaytirish kerakligini; turli millat va dinga mansub bolalar bilan ahil, do‘st bo‘lib yashashni, bag‘rikeng bo‘lishni o‘rganasiz.

Yuqorida ta’kidlanganlar haqida batafsil ma’lumot va tartib-qoidalar kitob sahifalarida sizni kutib turibdi. Ularni astoydil o‘rganing.

Siz “Tarbiya” darsligini puxta o‘rganib, O‘zbekistonning munosib farzandi bo‘lib yetishishingizga ishonamiz.

Mualliflardan

SHARTLI BELGILAR


Topshiriqlarni bajaring


Bu qiziq!


Savollarga javob bering


Guruhda ishlash


Mustaqil tayyorlash uchun topshiriq


Maslahatlar


Diqqat bilan o‘qing

1–2-MAVZU: VATANGA MUHABBAT

Bugun quyidagilarni o‘rganasiz:

1. Vatanparvarlik nimani anglatadi?
2. Vatanparvarlik qayerlarda va qanday namoyon bo‘ladi?
3. Vatanparvar inson qanday fazilatlarga ega?



Diqqat bilan o‘qing



Vatanparvarlik – kishilarning ona yurtiga, o‘z oshyoniga muhabbat va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha. Vatanparvarlik barcha xalqlar va millatlar uchun umumiy bo‘lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg‘u, ma’naviy qadriyatlardan biri. Bu Vatanning o‘tmishi va hoziri bilan faxrlanishda, uning manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo‘ladi. “Vatanni sevish iymondandir”, – deb bejiz aytishmagan.

Vatanparvarlik tuyg‘usini Vatanning porloq kelajagi uchun xizmat qilayotgan yurtdoshlarimizning tashabbuslarida ham ko‘rishimiz mumkin:

- o‘t o‘chiruvchilar, shifokorlar, o‘qituvchilar, quruvchilar kabi xalqqa va Vatanga astoydil xizmat qiluvchilarning fidokorligi;
- sportchilarimizning olimpiadalardagi g‘alabalari;
- sizning o‘qishdagi yutuqlaringiz, bilim olishga mas’uliyatli yondashuvingiz, maktab mulkiga ehtiyotkorona munosabatingiz.

Vatanparvarlik Vatan ravnaqi va gullab-yashnashiga hissa qo‘shishdir.



O‘zbekiston Qahramoni, xalq o‘qituvchisi Allaniyoz Uteniyazov o‘z qo‘llari bilan Nukusda 40 dan ortiq binolarni qurgan. Ular orasida turarjoy binolari, bolalar bog‘chalari, maktablar va shifoxonalar mavjud. U o‘z qo‘llari bilan quygan 860 000 dona g‘isht xonadonlarning devorlariga terilgan. Bu inson nafaqat uylar qurgan, balki bolalarni o‘qitgan, unga murojaat qilganlarning barchasiga yordam bergan katta qalb egasi hamdir.

1994-yildan buyon Birlashgan Millatlar Tashkiloti tashabbusi bilan 17-iyun Butun jahon cho‘llanish va qurg‘oqchilikka qarshi kurash kuni sifatida nishonlanadi. Faqat o‘rmonzorlar orqali qum bostirib kelishini to‘xtatish va cho‘lda yashil vohalarni tashkil qilish mumkin.

Namoz Jumayev ajoyib qahramonliklarni amalga oshirgan oddiy mehnat faxriysi. Uning mehnatlari tufayli cho‘lda, qadrdon mahallasi “Qorayantoq” yaqinida 35 ta futbol maydoni kattaligida o‘rmon yaratilgan.



Savollarga javob bering



1-topshiriq.

1. Namoz Jumayev va Allaniyoz Uteniyazovni vatanparvar insonlar deb atash mumkinmi? Javobingizni asoslab bering.
2. O‘zining mehnati bilan ibrat bo‘lgan yana qanday insonlarni bilasiz, ular haqida insho yozing.



Topshiriqlarni bajaring

2-topshiriq.

“O‘zbekistonning vatanparvar fuqarosi – bu ...” jumlasi bilan boshlanuvchi matn tuzing.

Matn uchun quyidagi so‘zlardan foydalaning:

sevuvchi, yashaydigan, faoliyat yuritadigan, qarshilik ko‘rsatadigan, himoya qiladigan, hurmat qiladigan inson.

3-topshiriq. Istalgan hikmatli so‘zlarni tanlang. Uni daftaringizga ko‘chiring va qanday tushunganingiz haqidagi fikringizni yozing.

Vatan tarkin bir nafas aylama,
Yana ranji g‘urbat havas aylama.

Alisher Navoiy

Kim o‘z yurtini sevmasa, u hech nimani seva olmaydi.

Jorj Bayron, ingliz shoiri



Savollarga javob bering

4-topshiriq.

1. Sizningcha, vatanparvar bolalar qanday fazilatlarga ega bo‘lishi kerak?
2. Siz vatanparvar bo‘lishga qodirmisiz?
3. Mavzuga oid maqollar aytib bering.



5-topshiriq. Yakunlangan fikr hosil qilish uchun quyidagi iboralarning qismlarini birlashtiring.

Vatanparvarlik o‘z mamlakati ravnaqi uchun	hurmat uyg‘otadi
Vatanparvarlik mamlakatining tarixi, urf-odatlari va madaniyatiga	xizmat qilishdir
Vatanparvarlik oilasi, xalqi va Vataniga nisbatan	his qilish quvonchini beradi
Vatanparvarlik mamlakatining qadr-qimmati va muvaffaqiyatlarini	mas’uliyat uyg‘otadi

Guruhda ishlash



6-topshiriq. Do‘stingizga quyidagi ibora bilan murojaat qiling: “Vatanni sevish bu ...”. Do‘stingiz iborani tugatishi kerak. Keyin do‘stingiz sizga ushbu iborani boshlab beradi va siz ham uni tugatishingiz kerak bo‘ladi. Shunday qilib, siz takrorlanishning oldini olib, iborani tugatasiz. Sizning vazifangiz bu so‘zlar kurashida tuzilgan gaplarning takrorlanishiga yo‘l qo‘ymaslikdir. Kim iboradan ko‘p gap tuzsa, o‘sha bu o‘yinda g‘olib sanaladi.

Mustaqil tayyorlash uchun topshiriq



“Men vatanparvarlikni suratga olaman” mavzusida musobaqa o‘tkazing. Musobaqani do‘stlaringiz bilan bajarishingiz mumkin. Sizning vazifangiz, oila a’zolaringiz yoki do‘stlaringizda, insonlarda vatanparvarlik hissi namoyon bo‘ladigan vaziyatlarni suratga olish. Masalan, siz suratga olmoqchi bo‘lganlar daraxtlarni oqlayotgan, yo‘llarni va ko‘chalarni daraxt barglaridan tozalayotgan bo‘lishi mumkin. Suratlaringizni o‘qituvchilaringiz hamda sinfdoshlaringizga ko‘rsatib o‘rtoqlashishingiz va to‘plagan suratlaringizni o‘quv yili yakunida fotoko‘rgazma qilishingiz mumkin.

3–4-MAVZU: BIZ O‘Z XATTI-HARAKATLARIMIZ UCHUN JAVOBGARMIZ

Bugun quyidagilarni o‘rganasiz:

1. Mas’uliyat nima?
2. Mas’uliyatni qanday his etish mumkin?
3. Mas’uliyatsizlik nima?
4. Qanday harakatlar mas’uliyatsizlik hisoblanadi?



Topshiriqlarni bajaring

1-topshiriq. Fotosuratlarni ko‘rib chiqing va savollarga javob bering.

1. Bu suratlarda nimani ko‘ryapsiz?
2. Chap tarafdagi suratda o‘quvchi berilgan vazifani qanday bajargan?
3. O‘ng tarafdagi suratda tasvirlangan bola nima bilan shug‘ullanayapti?
4. Sizning fikringizcha, suratlar bugungi mavzumizga aloqadormi?





2-topshiriq. Vaziyatni tasavvur eting va quyida berilgan savollarga javob bering.

Sinfdoshingiz birinchi darsga kechikdi. O‘qituvchi undan darsga kechikishining sababini so‘raganida, o‘quvchi ertalab maktab formasi va portfelini topolmaganini aytdi. Shunda o‘qituvchi yana savol berdi: “Nega maktab formangni va portfelingni oldindan tayyorlab qo‘ymading?” O‘quvchi javob berolmadi. Shunday bo‘lsa-da, o‘qituvchi unga sinfga kirishga va partasiga o‘tirishga ruxsat berdi.

1. Mazkur vaziyatda kim va nima sababdan aybdor deb o‘ylaysiz?
2. Siz ham bu o‘quvchining o‘rnida bo‘lganmisiz?
3. Bunday vaziyatga tushmaslik uchun siz qanday yo‘l tutgan bo‘lar edingiz?
4. Bunday o‘quvchiga qanday sifatlar yetishmaydi?

Diqqat bilan o‘qing



Mas’uliyat – bu insonning aytayotgan har bir so‘zi, xatti-harakatlari va ishlari uchun javob berishga qodirligi va tayyorligi.

Mas’uliyat quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- insonning o‘z xatti-harakati va so‘zlari oldida: masalan, reja-lashtirilgan tadbirlarni bajarishi, o‘z sog‘lig‘iga g‘amxo‘rlik qilishi, o‘z mol-mulkiga egalik qilishi;
- oilasi va yaqinlari oldida: masalan, o‘z yaqinlarini himoya qilishi, hurmat, mehr ko‘rsatishi va o‘zaro qo‘llab-quvvatlashi;
- jamiyat oldida: masalan, mamlakat qonunlariga, o‘z huquq va majburiyatlariga amal qilishi, mahallada, maktabda atrofidagilar-ga g‘amxo‘rlik qilishi, Vataniga munosib farzand bo‘lish uchun yaxshi o‘qishi va boshqalar.





Topshiriqlarni bajaring

3-topshiriq. Quyidagi xususiyatlarni salbiy va ijobiy ustunga ajratib, daftaringizga yozing.

O‘z kuchiga ishonmaslik, notanish ish bilan shug‘ullanishni xohlamaslik	Qat’iyatsizlik, o‘z faoliyati va xatti-harakatlari uchun mas’uliyatni zimmasiga ololmaslik
O‘z kuchiga ishonch, irodalilik, qat’iylik, maqsadlariga erishish	Muhim qarorlarni mustaqil qabul qilish, o‘z faoliyati va xatti-harakatlariga mas’uliyatli bo‘lish
O‘z xatolarini tan olishdan bosh tortish, o‘zbilarmonlik	Kattalarning oqilona maslahatlariga zid ravishda hamma ishni o‘z xohishicha qilish istagi
O‘z mehnati natijalarini to‘g‘ri baholash	Intizomlilik, kattalarning oqilona maslahatlariga bo‘ysunish



Diqqat bilan o‘qing

Mas’uliyatlilik quyidagilarda yordam beradi:

- muhim va mustaqil qarorlar qabul qilishda;
- o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi tomon harakat qilishda;
- xulosa chiqarib, xatolarni tuzatishda;
- bergan va’dasining ustidan chiqishga harakat qilishda.



Topshiriqlarni bajaring

4-topshiriq. Sinfingiz yoki maktabingizdagilarni mas’uliyatli shaxs, deb ayta olasizmi? Nima uchun? Ularni mas’uliyatli deb hisoblashingiz sababini yozing.



Savollarga javob bering

5-topshiriq.

1. Yaqinlari va jamiyat oldidagi mas’uliyatni qanday namoyon etish mumkin?
2. Mustaqil fikrga ega bo‘lgan insonga qanday ta’rif berasiz?

Topshiriqlarni bajaring

6-topshiriq.

1. Mas’uliyatsiz odamni qanday atash mumkin?
2. Uning xatti-harakatlarini ta’riflang.

Diqqat bilan o‘qing

Mas’uliyatsizlik – bu insonning o‘z so‘zlari va xatti-harakatlariga e’tiborsizligi.

Mas’uliyatsizlik:

- insonni muvaffaqiyatga erishish imkonidan mahrum qiladi;
- insonni ojiz qiladi;
- insonni o‘zgalarning qoidalari asosida yashashga majbur etadi;
- Insonning shaxs sifatida shakllanishi yo‘qolib boradi.

Topshiriqlarni bajaring

7-topshiriq. Fotosuratlarga e’tibor bering. Ularda ifodalangan vaziyatlarni ta’riflang. Kim o‘zini mas’uliyatsiz tutmoqda?





Mustaqil tayyorlash uchun topshiriq

Daftaringizda “Mas’uliyat haftaligi” jadvalini tuzing. Hafta davomida qanday muhim ishlarni bajarishingizni kuzating. Qaysi ishlaringizni bajara olganingiz va qaysi birini bajara olmaganingizni ko‘rsating. Sabablarini bayon eting.



Maslahatlar

Mas’uliyatsizlikni qanday yengib o‘tish mumkin?



1. O‘z hayotingiz, harakatlaringiz va qarorlaringizni rejalashtiring. Yaqinlaringiz, qarindoshlaringiz va do‘stlaringiz hayotiga xatti-harakatlaringiz qanday ta’sir qilishi haqida o‘ylang.
2. Boshlagan ishingizni oxiriga yetkazing. Har bir, hatto eng kichik ishni ham oxiriga yetkazing – bu mas’uliyatsizlikni yengib o‘tishning murakkab yo‘lidagi birinchi qadam. Ushbu harakatingiz bilan siz kuch, tajriba va mas’uliyatlilikni rivojlantirasiz.
3. Qo‘rquv va shubhalardan xalos bo‘ling. Qo‘rquv va shubhalardan xoli inson erkin yashaydi, qaror qabul qilayotganida atrofga hadik bilan qaramaydi, cho‘chimaydi. U natijalar uchun faol va mas’ul bo‘ladi.
4. Agar o‘zingizni mas’uliyatsiz deb bilsangiz, kitob o‘qing, odamlar bilan muloqotda bo‘ling, o‘z xatti-harakatlaringiz haqida o‘ylang, xatolaringiz ustida ishlang.







Topshiriqlarni bajaring

8-topshiriq. Daftaringizga o‘zingiz xalos bo‘lishni istagan bir nechta odatlarni yozing. Masalan: uyquga kech yotish.

1. Bu odatlarni foydasiz, deb hisoblashingizning sabablarini yozing.
2. Bu odatlardan qanday qutulish mumkinligini ifodalang.
3. Yozganlaringizni o‘qing, tahlil qiling va xulosa chiqaring.

Topshiriqlarni bajaring




9-topshiriq.

Vaziyatlarni o‘qing. Bunday vaziyatlarga tushib qolmaslik uchun qanday yo‘l tutish kerak?

1. O‘quvchi ertalab uxlab qolib, maktabga kechikdi.
2. O‘quvchi ertalab shoshganidan kundaligini unutib qoldirdi.
3. O‘quvchi uy vazifasini bajarmaganligi sababli “2” baho oldi.

10-topshiriq.

Partadoshingiz bilan birga bajaring. Eyler-Venn diagrammasidan foydalanib, quyidagi tushunchalar juftligini taqqoslang.



	A	B
1.	O‘z oldidagi mas’uliyat	Va’dalarini bajarish
2.	Yaqinlarga g‘amxo‘rlik	Yaqinlari oldidagi mas’uliyat
3.	Yaxshi o‘qish	Jamiyat oldidagi mas’uliyat
4.	Mas’uliyat	O‘z so‘zlari, xatti-harakatlariga javob berishga tayyorlik
5.	Mas’uliyat	Mas’uliyatsizlik
6.	Do‘stlik	Qo‘llab-quvvatlash
7.	Odamlar bilan yaxshi muloqot qilish	Xushmuomala bo‘lish
8.	Boshqalarning xatosini ko‘rsatish	Qo‘llab-quvvatlash
9.	O‘z aybini boshqalarga to‘nkash	Mas’uliyatsizlik
10.	Mas’uliyat	Yolg‘on

11-topshiriq.

Quyidagi hikmatli iboraning mazmunini ochib bering.

Dangasalik har vaqt insonni xor qilur.

Abdulla Avloniy

12-topshiriq.

Vaziyatlarni o‘qing, ularni hal qilish choralari haqida o‘ylang. Partadoshingiz bilan muhokama qiling.

1-vaziyat. Akram darslarini tayyorlashi zarur. “Matematika” va “Ona tili” fanidan uy vazifasi ko‘p va qiyin edi. Do‘sti esa Akramga tez-tez qo‘ng‘iroq qilib, hovlida birga o‘ynashni taklif qilardi.

2-vaziyat. Nodira yozda buvisinikida mehmon bo‘ldi. Kun juda issiq edi. Buvisi Nodiradan non olib kelish uchun novvoyxonaga borib kelishini so‘radi. Nodira shu jaziramada uydan ko‘chaga chiqishni istamas, ammo rad javobini berib, buvisini xafa qilishni ham xohlamasdi.

3-vaziyat. Oyisi Komilaga uch yoshli jajji ukasi Shuhratjonni hovlida aylantirib kelishni, o‘zi kechki ovqatni tayyorlashi kerakligini aytdi. Shuhratjon opasi Komiladan uni arg‘imchoqda uchirishini so‘radi, biroq Komila ukasini arg‘imchoqda uchirmadi, chunki u dugonasi bilan telefonda suhbatlashmoqchi edi. Shuhratning o‘zi arg‘imchoqda mustaqil uchishga qaror qildi.

4-vaziyat. Avtomobil to‘xtash joyi yaqinidagi bino hovlisida bolalar futbol o‘ynashardi. O‘yin juda qiziqarli va hayajonli o‘tayotgan edi. Yigitlar o‘yinga shu qadar berilib ketishgan edilarki, to‘xtab turish joyiga mashina qanday kelganini payqamadilar. Haydovchi avtoturargohga kirishdan oldin mashinani to‘xtatdi. Shu payt Karim to‘pni qattiq tepgan edi, to‘p darvoza tomon emas, mashina oynasiga kelib urildi. Hamma bolalar har tomonga qochib ketishdi, hovlida faqat Karim qoldi. Haydovchi mashinadan tushdi va Karimning oldiga kelib so‘radi: “Bu vaziyatda kim aybdor?”











Mustaqil tayyorlash uchun topshiriq

VAQT QADRI

Ikki bola ko‘chadagi soat ostida turib suhbatlashishardi.

– Men misolni yecholmadim, chunki u qavsli ekan, – deb o‘zini oqlamoqchi bo‘lardi Yura.

– Men esa juda katta sonli misol bo‘lgani uchun yecholmadim, – dedi Odil.

– Buni birgalikda yechishimiz mumkin, – dedi Yura.

Ko‘chadagi soat 13:30 ni ko‘rsatardi.

– Bizda yarim soat vaqt bor, – dedi Odil. – Bu vaqtda uchuvchi yo‘lovchilarni bir shahardan boshqasiga eltishi mumkin.

– Mening amakim esa, kapitan. Kema halokati paytida yigirma daqiqada butun ekipajni qayiqlarga o‘tkazib qutqargan, – dedi kerilib Yura.

– Nima? Yigirma daqiqadami? Ba’zan besh-o‘n daqiqada ko‘p ishlarni bajarish mumkin. Faqat har bir daqiqani hisobga olish kerak.

– Bir musobaqa paytida shunday voqea bo‘lgan... – dedi Yura ko‘zlarini katta ochib. – Uzoqqa sakrovchi sportchi vaqtni ikki soniyaga qisqartirish maqsadida mo‘ljal chizig‘idan oldinroq sakragani uchun oyog‘i singan.

– Baliq tutgani borganimiz esingdami? – gapni ilib oldi Odil. – Agar ikki daqiqa kech qolsak, sinfdoshimiz Jasur cho‘kib ketarmidi...

Bolalar ko‘plab qiziqarli voqealarni esga olishdi.

– Men yana bir voqeani bilaman... – Odil shunday dedi-yu, birdan to‘xtadi va soatiga qaradi. – Soat roppa-rosa ikki!

Yura xo‘rsinib qo‘ydi. So‘ng:

– Yugur! Maktabga kechikdik! – dedi.

– Misolni nima qilamiz? – cho‘chib so‘radi Odil.

Yura yugurgancha qo‘lini silkitib qo‘ydi.



Savollarga javob bering

1. Nega bolalar matematikadan uy vazifasini bajara olishmadi?
2. Dars boshlangunga qadar yarim soat vaqtlarini qanday sarflashga qaror qilishdi?
3. Nega bolalar darsga kechikishdi?
4. Ular qanday mas’uliyatsizlikka yo‘l qo‘yishdi?

5–6-MAVZU: INSONNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

Bugun quyidagilarni o‘rganasiz:

1. Bola qanday huquq va majburiyatlarga ega?
2. O‘z huquq va majburiyatlariga amal qilish qanchalik muhim?
3. Boshqa insonlarning huquqlarini qanday hurmat qilish kerak?



Diqqat bilan o‘qing

Sayyoramizda tashqi qiyofasi (rangi, ko‘zi, sochi, tana tuzilishi va o‘lchami) va ichki xususiyatlari (xarakteri, qarashlari, qiziqishlari, mashg‘ulotlari) bilan farq qiluvchi turli xalq va millat vakillari yashaydi. Ushbu farqlardan qat’i nazar, har bir inson o‘zi uchun eng yaxshisiga intilishi, hayoti va ijodi uchun qulay sharoitni tanlashi, yaxshi ta’lim, sifatli tibbiy yordam olishni xohlaydi. Bu uning huquqi deyiladi.

Huquq – bu davlat tomonidan berilgan, biz foydalanishimiz mumkin bo‘lgan imkoniyat.

Huquq – bu biz bildirishimiz mumkin bo‘lgan talab. Huquqlar davlat tomonidan belgilanadi.





Savollarga javob bering

1-topshiriq. Rasmga qarang va quyidagi savollarga javob bering:

1. Rasmda kimlar tasvirlangan?
2. Bu bolalar qaysi yurt farzandlari deb o‘ylaysiz? Javobingizni rasm yordamida aniq asoslang.
3. Kimlar baxtli bo‘lish huquqiga ega?
4. Bolalarning baxtli bolaligi va ularning huquqlarini himoya qiluvchi xalqaro tashkilotlar mavjudmi?





Diqqat bilan o‘qing

BOLALARNI HIMOYA QILADIGAN XALQARO TASHKILOT

Inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha xalqaro tashkilotlar mavjud. Ma’lumki, 1989-yil 20-noyabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Bosh Assambleyasi tomonidan “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiya qabul qilindi. Uning asosiy maqsadi – bolalar va ularning huquqlarini himoya qilish. Konvensiya 1990-yil sentabrda kuchga kirdi.

O‘zbekiston Konvensiyaga 1992-yil 9-dekabrda qo‘shildi.

Konvensiya 54 ta moddadan iborat.

Bolalar muammolarini xalqaro miqyosda hal qilishda Birlashgan Millatlar Tashkilotining bolalar jamg‘armasi (UNICEF) muhim ahamiyatga ega.

UNICEF urush, fuqarolik tartibsizliklari va tabiiy ofatlardan jabr ko‘rgan bolalar hamda ayollarga oziq-ovqat, dori-darmon, toza ichimlik suvini favqulodda holatlar zonasiga yetkazishda yordam beradi.



Yashash huquqi.

Harbiy harakatlar sababli yuzaga keladigan alohida muammolarni hal qilish uchun UNICEF urushning har ikki tomonidagi bolalarga yordam ko‘rsatishni tashkil qiladi.

UNICEF 70 yildan ortiq vaqtdan beri bolalarga yordam berib kelmoqda.

Quyida mazkur Konvensiyada belgilangan ayrim huquqlar keltirilgan:



Oilada yashash huquqi.



Tibbiy yordam olish huquqi.



Jismoniy, aqliy, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishda zarur hayotiy huquqlar.



Ta’lim olish huquqi.



Dam olish huquqi.



Savollarga javob bering

2-topshiriq.

1. Barcha bolalar ham bir xil huquqqa egami?
2. Sizning fikringizcha, bolalarning ham majburiyatlari bo‘lishi mumkinmi?
3. Sizning qanday majburiyatlaringiz bor?

Topshiriqlarni bajaring

3-topshiriq. Rasmlarni ko‘rib chiqing. Har bir rasmda qanday vaziyat aks etganligini aniqlang. Ularning har birini quyidagi tegishli huquqlar nomi bilan belgilang: boshqalarning mulkiga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, yaqinlarga g‘amxo‘rlik qilish, to‘g‘ri ovqatlanish, tibbiy ko‘rikdan o‘tish.

Siz o‘z hayotingizda bunday majburiyatlarni bajarasizmi?











Mustaqil tayyorlash uchun topshiriq

1. Har birimiz ta’lim olish huquqiga egamiz. Bizga bu huquq nima beradi?
2. Ta’lim huquqidan hayotda qanday foydalaniladi? Javoblarni daftaringizga yozing.



Diqqat bilan o‘qing

Har bir inson bajarishi zarur bo‘lgan majburiyatlar bor. Ularga bolalar ham, kattalar ham birdek amal qilishi shart.

Har bir jamiyatda qonunlar mavjud. Qonun – bu odamlar, tashkilotlar, davlat va boshqa davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarni belgilaydigan xulq-atvor qoidalari yoki normalari to‘plami. Davlatning asosiy qonuni Konstitutsiya deb ataladi. Mamlakatimizda huquq va majburiyatlar Konstitutsiyada belgilab qo‘yilgan. Davlatimiz Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan.

Quyida O‘zbekiston Konstitutsiyasida belgilangan ayrim majburiyatlar keltirilgan:



Qonunlarni, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilish.

Tarixiy, ma’naviy va madaniy merosni avaylab-asrash.



Atrof-tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish.



Qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig‘imlarni to‘lash.

Savollarga javob bering



4-topshiriq.

1. 1989-yil 20-noyabrda qabul qilingan bola huquqlariga bag‘ishlangan hujjat qanday ataladi?
2. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qachon qabul qilingan?
3. Bola qanday huquqlarga ega?
4. Qonunlar insonga nima uchun kerak?
5. Bola huquqlarini himoya qilishda qanday xalqaro tashkilotlar ishtirok etadi?

Diqqat bilan o‘qing



Bizning majburiyatlarimiz

Huquq va majburiyatlar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular bir-biridan ajratilmaydi.

Huquqlardan majburiyatlarni anglagan holda foydalanish mumkin. Odamlar o‘z majburiyatlarini bajara olmasalar, barcha huquqlar o‘z ma’nosini yo‘qotadi.

Davlat huquqlarga amal qilinishini ta’minlaydi. Barcha fuqarolar davlat qonunlariga bo‘ysunishlari va har doim davlatni himoya qilishga tayyor turishlari shart.

Topshiriqlarni bajaring

5-topshiriq. E’tiboringizni fotosuratga qarating va quyidagi savollarga javob bering:

1. Ushbu fotosuratlarda nima sodir bo‘lgani tasvirlangan?
2. Bu holatga kim aybdor va bu voqeaning sababi nimada?
3. Yong‘in aybdorlari kimning oldida javobgar: o‘zlari, yaqinlari yoki jamiyat oldida?
4. Qanday qilib bunday vaziyatlarning oldini olish mumkin?
5. Bunday yong‘inlar nimalarning nobud bo‘lishiga sabab bo‘ladi?








Mustaqil tayyorlash uchun topshiriq

1. Quyidagi mavzuga oid kichik insho (esse) yozing: “Agar insonlar o‘z huquq va majburiyatlariga amal qilmasalar, jamiyatda qanday ko‘ngilsizliklar yuz berishi mumkin?”
2. Kun davomida qanday huquqlardan foydalanganingizni tartib bilan yozing. Bunda sizga O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi yordam beradi.

7–8-MAVZU: ONA TABIATNI ASRASH – BIZNING BURCHIMIZ

Bugun quyidagilarni o‘rganasiz:

1. Dunyoda qanday ekologik muammolar mavjud?
2. Nima uchun ekologik muammolar yuzaga keladi?
3. Tabiiy zaxiralarni saqlash masalasini hal etishda qanday yordam bera olasiz?


Diqqat bilan o‘qing



Biz odamlarning hayotini osonlashtiruvchi qiziqarli va foydali texnologiyalar hamda texnologik taraqqiyot dunyosida yashayapmiz. Inson o‘z hayotini elektr, televizor, telefon yoki internetsiz tasavvur qila olmaydi. Atrofga nazar tashlasangiz uyda, maktabda sizni o‘rab turgan turli xil gadjetlarni ko‘rasiz. Biroq ushbu yutuqlarning salbiy tomoni ham mavjud – bunday taraqqiyot natijalari butun dunyoda ekologik muhitga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Bularning barchasi sayyoramizga juda zararli ta’sir ko‘rsatadi. Jahonda ekologik muammolar paydo bo‘ladi, toza atrof-muhitni saqlab qolish bilan bog‘liq qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Inson faoliyati, shuningdek, siz bilan bizning tabiatga qarshi har qanday faoliyatimiz o‘rmonlar, dengizlar, hayvonlar, butun sayyoramizning asta-sekin nobud bo‘lishiga olib keladi.



Yer sayyorasining kelajakdagi taqdiri siz bilan bizga, ekologik madaniyatimiz darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

Ekologiya – atrof-muhitdagi turli organizmlar hayotini o‘rganadigan fan bo‘lib, unga atrofimizdagi barcha tirik mavjudotlar va jonsiz narsalar o‘zaro ta’sir qiladi. Ekologiya so‘zi grek tilida “eykos” – uy-joy; “logos” – fan, bilim ma’nosini bildiradi.

Ekologik muammolar – sayyora muammolari – insoniyat muammolari – bizning muammolar!



1-muammo. **O‘rmonlarni kesish**

Dunyoda har soniyada futbol maydoniga teng bo‘lgan o‘rmon kesiladi.

Yashil o‘rmonlar sayyoramizning nafas oluvchi organi hisoblanadi. Olimlarning fikriga ko‘ra, quyoshli kunda bir gektar o‘rmon 120–280 kg karbonat angidridni havodan yutadi va 180–200 kg kislorodni chiqaradi.



2-muammo. **Daryolar, dengizlar va okeanlarning ifloslanishi**

Tinch okeandagi chiqindi dog‘i maydon bo‘yicha Fransiya hududidan uch karra oshdi.

Neftni suv bo‘ylab tashishda odamlarning mas’uliyatsizligi yoki beparvoligi tufayli neft suvga tushadi va suv yuzasiga katta dog‘ bo‘lib quyiladi, suvni zaharlaydi, dengiz hamda okeanlarning hayvonot va o‘simlik dunyosini nobud qiladi.



3-muammo. **Ichimlik suvining yetishmasligi**

Hozirgi kunda yer yuzida ikki milliard odamga toza ichimlik suvi yetishmaydi. 2030-yilga kelib 700 million kishi toza suv yetishmasligi tufayli o‘z yurtlarini tashlab, o‘zga yurtlarga ketishlari mumkin. Suvning yetishmasligi, asosan, ushbu tabiiy resurslardan oqilona foydalanmaslik sababli yuzaga keladi.



4-muammo. **Havoning ifloslanishi**

Havoning ifloslanishi zavodlar, fabrikalar, issiqlik elektr stansiyalari va yonilg‘i sarflaydigan transport vositalarining ishlashi vaqtida atmosferaga turli xil gazlar chiqarilganda sodir bo‘ladi.

5-muammo. **Haroratning keskin ko‘tarilishi**

O‘tgan 100 yil davomida kuzatishlar yerdagi o‘rtacha harorat asta-sekin o‘sib borayotganini ko‘rsatadi. Buning sababi turli gazlarning doimiy chiqarilishi tufayli atmosferaning ifloslanishidir. Natijada, yer yuzida iqlim o‘zgaradi, muzliklar eriydi, turli xil o‘simliklar va hayvonlar yo‘qolib boradi.





6-muammo. **Muzliklarning erishi**

Muzliklarning erishi Arktikada oq ayiqlar sonining kamayishi, suv toshqinlari, yaylovlarni suv bosishi, okean oqimlari va umumiy iqlim o‘zgarishiga olib keladi.

7-muammo. **O‘simlik va hayvon turlarining yo‘qolishi**

Sayyorada har bir daqiqada jonzotlarning bittadan turi yo‘qolib bormoqda. Bunga sabab – iqlim o‘zgarishi, o‘rmon yong‘inlari, dengiz hamda okeanlarning ifloslanishi, mo‘yna, teri uchun ov qilish. Barcha holatlar sababchisi inson hisoblanadi.





Guruhda ishlash

1-topshiriq. Jamoalarga bo‘linib, ushbu ekologik muammolarni hal qilish yo‘llarini topishga harakat qiling. Munozaralarning natijalarini jadval shaklida daftaringizga yozing.

Ekologik muammo	Muammoning yuzaga kelish sabablari	Muammolarni hal etish usullari
Daryo, dengiz va okeanlarning ifloslanishi	1.	1.
	2.	2.
	3.	3.



Mustaqil tayyorlash uchun topshiriq

Yer sayyorasi nomidan nutq tayyorlang. Agar Yer gapira olganda, sizga nima degan bo‘lardi? Tayyorlagan nutqingizni darsda yoki ota-onalar majlisida so‘zlang!



Diqqat bilan o‘qing

Global ekologik muammolarni faqat hamma birlashib hal etishi mumkin. Shuning uchun atrof-muhitni muhofaza qilish, inson salomatligini saqlash g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlovchilar O‘zbekiston ekologik partiyasi kabi partiyalar va harakatlarga birlashadilar. Xalqaro *Greenpeace* hamda Butun jahon yovvoyi tabiat jamg‘armasi *(WWF) – World Wildlife Fund* kabi dunyoga mashhur tashkilotlar ham ekologik muammolarni bartaraf etish uchun tuzilgan. Atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha barcha tashkilotlarning birgalikdagi vazifasi tabiatni sog‘lom asrab qolishdir.



GREENPEACE

WWF



Savollarga javob bering

2-topshiriq.

1. Atrof-muhit ifloslanishining qanday sabablari mavjud?
2. Insoniyat tabiatga nisbatan qanday munosabatda?
3. Sizningcha, insonning yolg‘iz o‘zi global ekologik muammolarni hal qila oladimi?
4. Qaysi xalqaro tashkilotlar haqida bilib oldingiz? Ular nima bilan shug‘ullanadi?
5. O‘ylab ko‘ring, ekologik muammolarni hal qilishda siz qanday yordam berishingiz mumkin?



Diqqat bilan o‘qing

Ko‘pgina odamlar ekologik muammolarning ularga bevosita aloqasi yo‘q deb o‘ylashadi. Ammo ba’zi insonlar hayvonlarni ov qilib, ularning yo‘q bo‘lib ketishiga sababchi bo‘lishadi. Zavod va fabrikalardan chiqayotgan zararli moddalar sababli esa havo ifloslanmoqda.

Atrof-muhitni saqlab qolish uchun yordam berayotgan insonlar ham yo‘q emas, ular qog‘ozni qayta ishlash punktiga topshirish orqali daraxtlarni kesilishidan saqlab qolishadi. Yoki, aksincha, suv havzalariga tashlangan plastik paket suvga tushadi, uni oziqa deb bilgan baliq yutib yuboradi va nobud bo‘ladi.

Siz ham ekologik muammolarni hal qilishda juda katta yordam bera olasiz. Bugundan boshlab ishni besh xil: qog‘oz, metall, plastmassa, shisha va oziq-ovqat chiqindilarini maxsus konteyner idishlarga to‘plashdan boshlang.

Ajratib olingan chiqindilar ikkilamchi qayta ishlash uchun turli xil qabul qilish punktlariga yetkaziladi. Chiqindi qog‘ozlarni qayta ishlash katta maydonlardagi daraxtlarning kesilishini oldini oladi.



Organik chiqindilar – oziq-ovqat mahsulotlari qoldiqlari tuproq o‘g‘itlariga, plastmassa, shisha va metallar esa qayta ishlanib, turli xil iste’mol mahsulotlariga aylantiriladi. Shunday qilib, siz sayyoramiz ekologiyasiga, kelajak avlodga qoluvchi ona zaminga ijobiy ta’sir qilishingiz mumkin.

XULOSA: CHIQINDILARNI SARALASH BILAN BIZ AVLODLARIMIZ UCHUN TABIIY BOYLIKLARNI TEJAGAN BO‘LAMIZ




Agar siz ushbu belgini ba’zi paketlar va mahsulotlarda ko‘rsangiz, bilingki, bu qayta ishlanish belgisidir. Bu shuni anglatadiki, mahsulot qisman yoki to‘liq qayta ishlangan xomashyodan tayyorlangan yoki keyinchalik qayta ishlanishi mumkin.



Savollarga javob bering

3-topshiriq.

1. Sayyoramiz ekologiyasi bir kishiga bog‘liqmi?
2. Chiqindining qanday turlari mavjud?
3. Chiqindilarni saralash va tabiiy resurslarni saqlash o‘rtasida qanday bog‘liqlik mavjud?
4. Uyingizdan iloji boricha ko‘proq qayta ishlash belgisi bor bo‘lgan buyumlarni toping.



Bu qiziq!



Suvning taxminiy sarfi haqida

- Avtomobilni yuvishda chelakdan foydalansangiz, 30 litr suv sarflaysiz.
- Dush jo‘mragi 3 daqiqa davomida ochib turilganda, 30 litr suv sarflanadi.
- Har doim qo‘lni yuvish uchun suv jo‘mragi ochib turilganda, 1 daqiqada 12 litr suv sarflanadi.
- Hojatxonada bir martalik foydalanish uchun 11–15 litr suv sarflanadi.
- Agar tishlarni yuvish vaqtida suv jo‘mragi ochiq qoldirilsa, 30 soniya ichida 6 litr suv oqib ketadi. Biz tishlarni o‘rtacha 3,5 daqiqa davomida tozalaymiz. Bunday paytda suvni stakanga olib ishlatish mumkin.
- Sochga shampun surish vaqtida suv jo‘mragini o‘chirib qo‘ysangiz, 40 litr suvni tejashingiz mumkin.

Ushbu ma’lumotlarni daftaringizga yozing, do‘stlaringiz va qarindoshlaringizga so‘zlab bering.

Mustaqil tayyorlash uchun topshiriq



Rasmni diqqat bilan kuzating va daftaringizga chizib oling. Kesib olingan archaning o‘rmondan chiqindixonagacha bo‘lgan yo‘lini tasvirlang. Archa yangi hayot boshlashi mumkin bo‘lgan boshqa yo‘l toping. Bu yo‘lni chizing.



9-MAVZU: BIR-BIRIMIZNI TUSHUNISHNI O‘RGANAMIZ

Bugun quyidagilarni o‘rganasiz:

1. His-tuyg‘u nima va uning qanday turlari bor?
2. Hissiyot va kechinmalar qay tarzda ifodalanadi?
3. O‘zimiz va o‘zgalarning his-tuyg‘usini qanday anglash mumkin?




Diqqat bilan o‘qing

Biz turlicha fikrlaydigan va bir-biriga o‘xshamagan insonlar orasida yashayapmiz. Boshqa inson nimani his qilishini bilish va uning his-tuyg‘ularini to‘g‘ri tushunish juda muhim. Ushbu his qilish tuyg‘usi oilada, maktabda, ishda va do‘stlar bilan muloqotda, shuningdek, hayotning barcha jabhalarida zarur. Buning uchun dastlab o‘z hissiyotlari va kechinmalarini bilish va nazorat qilishni o‘rganish kerak.

His-tuyg‘ular – atrofimizda yoki dilimizda sodir bo‘layotganlarga munosabatimizni ifodalash, ya’ni tuyg‘ularimiz, bajarayotgan ishlarimiz, o‘zimiz va atrofimizda sodir bo‘layotganlarga salbiy yoki ijobiy javobimiz. Kishining o‘z hayotida nimalar yuz berayotganiga, nimalarni bilib olayotganiga yoki nima bilan mashg‘ul bo‘layotganiga nisbatan o‘zicha turli xil shaklda bildiradigan ichki munosabatidir.

His-tuyg‘ularni uchta katta – ijobiy, salbiy va betaraf guruhga ajratish mumkin:



Ijobiy tuyg‘ular xursandchilik, shodlik, mamnuniyat, ilhomlanish kabi yoqimli tuyg‘ulardir.



Salbiy tuyg‘ular qo‘rquv, jahl, qayg‘u, dushmanlik, aybdorlik, umidsizlik, g‘azablanish, xafagarchilik, nafratlanish kechinmalari kabi kayfiyatni tushiruvchi tuyg‘ulardir.



Betaraf tuyg‘ular kayfiyatga va sog‘liqqa ta’sir etmaydi, lekin ular bilishga undaydi hamda ajablanish, hayratlanish, qiziqish, yangi ilmiy kashfiyotlarga intilishni yuzaga keltiradi.

Topshiriqlarni bajaring



1-topshiriq. Jadvalni daftaringizga ko‘chiring va to‘ldiring. Unda keltirilgan vaziyatlarga sizning munosabatingiz qanday? Topshiriqni aniq bajarish uchun siz o‘z tasavvuringizga e’tiborli bo‘lishingiz va vaziyatni ko‘z oldingizga keltirishingiz kerak bo‘ladi.

Vaziyat, hodisa, amallar	Sizning kechinmalaringiz
Siz yaxshi do‘stingiz (dugonangiz)ni ko‘rib qoldingiz	Xursandchilik
Siz eng sevimli tortingizni yeyapsiz	
Siz och qolgan, sovqotgan mushukchani qutqardingiz	
Siz onangizning eng sevimli guldonini sindirib qo‘ydingiz	
Siz qiziqarli kitobni mutolaa qilyapsiz	
Do‘stingiz sizni darsdan keyin kutmay ketib qoldi	
Siz kichiklarni xafa qilishayotganlarini ko‘rdingiz, ular yig‘lashmoqda	
Siz xonalarni yig‘ishtirishni yakuniga yetkazishga ulgurmayapsiz	
Siz uy vazifasini bajarmadingiz	
Siz birinchi marta insonga o‘xshaydigan robotni ko‘rdingiz	

Savollarga javob bering



2-topshiriq.

1. Tuyg‘u nima?
2. Sizning his-tuyg‘ularingiz nimaga bog‘liq bo‘ladi?
3. Siz qaysi kechinmalaringizni ko‘proq, qaysi birini kamroq namoyon qilishni istaysiz? Nega?

Diqqat bilan o‘qing



Tuyg‘ular insonlarga sodir bo‘layotgan hodisalarga o‘z munosabatini bildirish va bir-birini tushunish uchun kerak. Qanchalik zid bo‘lmasin, barcha ijobiy hamda salbiy tuyg‘ular ahamiyatga ega.


G‘am-qayg‘u, xursandchilik, hayrat kabi kechinmalar kimningdir yoki nimaningdir muhimligini, qadrliligini his qilishda bizga yordam beradi. Masalan, siz maktabda do‘stingizni ko‘rmaganingizda xafa, keyingi kun uni uchratganingizda esa xursand bo‘lasiz. Inson, odatda, o‘zi o‘rganganidek bo‘lmagan, kutilmagan vaziyat yuzaga kelgan holatda hayratlanish tuyg‘usini his qiladi.



Guruhda ishlash

3-topshiriq. Rasmlarda turli his-tuyg‘ular aks ettirilgan.

1. Varaqqa do‘stingiz, partadoshingiz, akangiz yoki singlingiz bilan ijobiy, salbiy va betaraf his-tuyg‘ular aks ettirilgan rasmlarning raqamlarini yozib chiqing.
2. Tanlagan rasmlaringizni bir-biri bilan taqqoslang. Sizga qaysi kechinmalar mos keldi?
3. O‘ylab ko‘ring, nima uchun sizga mos kelmagan holatlar mavjud?
4. Hozir qanday tuyg‘uni his qilayotganingizni aniq belgilay olasizmi?



Diqqat bilan o‘qing



O‘z kechinmalaringiz va boshqalarning kechinmalarini aniqlashni o‘rganib olganingizdan keyin ularni nazorat qilishni bilishingiz kerak bo‘ladi. Ayniqsa, bu qo‘rquv, g‘azab, nafrat, achchiqlanish kabi salbiy tuyg‘ularga taalluqlidir. Nazorat qilinmaydigan salbiy tuyg‘ular sog‘lig‘ingizni yomonlashtiradi, shuningdek, do‘stlar va yaqinlar bilan munosabatlaringizga ziyon yetkazadi.

Maslahatlar



Agar siz g‘azablansangiz, achchiqlansangiz, jahlingiz chiqsa yoki vahimaga tushsangiz, quyidagi maslahatlarni o‘qing:

1. O‘zingizga ozgina vaqt ajrating. Ovoz chiqarmay, teskari tartibda 10 dan 0 gacha sanang.
2. Burun orqali chuqur nafas olib, og‘iz orqali chiqaring.
3. “Mening jahlim ... sababli chiqyapti”, “Men qo‘rqyapman, chunki ...” deb sabablarni sanab o‘ting.
4. Sizning his-tuyg‘ularingiz – bu o‘zingizning, boshqalarning bajargan amallariga, vaziyatga, hodisalarga nisbatan javobingiz hisoblanadi. Vaziyatni o‘zgartirishga urinib ko‘ring. Sizni xursand qiladigan narsalar, siz yaxshi ko‘radigan kishilar haqida eslang. Tabassum qiling. Yaxshi ko‘rgan mashg‘ulotingiz bilan shug‘ullaning, yoqtirgan musiqangizni tinglang, qiziqarli kitob o‘qing.

Savollarga javob bering



4-topshiriq.

1. Tuyg‘ular nima uchun kerak?
2. Nima uchun o‘z tuyg‘ularingiz va boshqalarning tuyg‘ularini his qilishni bilishingiz kerak?
3. Sizning fikringizcha, his-tuyg‘ularsiz yashash mumkinmi?

Mustaqil tayyorlash uchun topshiriq



Mavzuni tanlang va kichik hikoya yozing.

1. “Qadim zamonda bir jahldor kishi yashagan ekan…”
2. “Men hamma bilan ijobiy kechinmalarimni o‘rtoqlashmoqchiman”.

10-MAVZU: MEHR QADRI

Bugun quyidagilarni o‘rganasiz:

1. Mehribonlik nima?
2. Nima uchun boshqalarga yordam berish juda muhim?
3. Qanday qilib mehr ko‘rsatish mumkin?
4. Befarqlik, begonalashuv, e’tiborsizlik, qahrlilik, bag‘ritoshlik – bular qanday xislatlar?



Diqqat bilan o‘qing

Insonlarga mehr-oqibat ko‘rsatish naqadar muhim?

Mehribonlik – bu insonlarga, butun jonli va jonsiz narsalarga nisbatan samimiy, e’tiborli va ochiqko‘ngil bo‘lish. Mehribonlik yuksak axloq va boshqa ko‘pgina xulqlarning asosi hisoblanadi.

Har bir inson doimo aql bilan ish tutishi, insonlarga ham, hayvonlarga ham, hatto jonsiz narsalarga ham zarar yetkazmasligi, mehr-shafqatli bo‘lishi kerak.

Mehribon odamlar bilan do‘stlashish va bunday odamlar bilan muloqot qilish hayotga bo‘lgan qiziqishlarning ortishiga, ezgu amallar qilish istagi paydo bo‘lishiga sababchi bo‘ladi.

Samimiy his-tuyg‘ular tufayli shafqatsizlik, nafrat, g‘azab yo‘qoladi.



Topshiriqlarni bajaring

1-topshiriq. Quyidagi keltirilgan namunalardan foydalanib, o‘z hislaringizni daftaringizga yozing.

Menga boshqalar mehr ko‘rsatishganda va yordam berishganda o‘zimni .... his qilganman.	Men boshqalarga mehr ko‘rsatganimda va yordam berganimda o‘zimni .... his qilganman.

2-topshiriq. Eslab ko‘ring, kimlarga qanday mehr ko‘rsatgansiz va yordam bergansiz? Fikrlaringiz bilan o‘rtoqlashing.



Guruhda ishlash



3-topshiriq. Guruhlarga bo‘linib, quyidagilarning rasmini chizing:

a) uyingizni;
b) maktabingizni;
d) jamoat joylaridan birini (do‘kon, avtobus, metro, bozor, piyodalar yo‘lakchasi va boshqalar).

Ushbu joylarda kimlarga va nimalarga qanday yordam ko‘rsatish mumkin? Guruhingizdagilar bilan muhokama qiling.







Diqqat bilan o‘qing

Mehribonlik – atrofdagilarga beg‘araz yordam berish.

Mehribonlik – odamlarga bo‘lgan ichki muhabbatning tashqi namoyishi.

Mehribonlik – biror kishining jismoniy va ruhiy dardini his qilish va o‘z dardiday qabul qilish.

Mehribonlik – atrofdagilarga e’tiborlilik, ziyraklik, ularning manfaatlari, muammolari, qiziqishlariga hurmat va e’tibor qaratish.

Mehribonlik – bu har qanday sharoitda ham boshqalarga zarar yetkazmaslik.



Maslahatlar

Boshqalarga mehrimizni, yordamimizni qanday ko‘rsatamiz va namoyon qilamiz?

1. Biz yaqinlarimizning holidan xabar olishimiz mumkin.
2. Ularga oziq-ovqat mahsulotlarini, dori-darmonlarini olib kelib berishimiz mumkin.
3. Bemor bo‘lib yotgan yaqinlarimiz va do‘stlarimizning ko‘ngliga taskin beruvchi, iliq so‘zlar bilan qo‘llab-quvvatlovchi xatlar bitishimiz mumkin.
4. O‘zimizdan kichik uka va singillarimizning maktabdagi noxush holatlarida, bahosi past bo‘lganda darslariga yordam berishimiz lozim.
5. Kimdir bizga nisbatan nohaqlik qilib, dilimizni og‘ritsa, uni kechirishimiz kerak.

Mehr nega kerak?

- Mehribonlik insonning eng yaxshi fazilatlarining yuzaga chiqishiga imkon beradi.
- Mehribonlik odamlarga muhabbat ulashadi.
- Mehribonlik birovga shodlik ulashish imkonini beradi.
- Mehribonlik odamni jahl va befarqlikdan ozod qiladi.
- Mehribonlikning yetishmasligi odamlarda bemehrlik va bag‘ritoshlikning paydo bo‘lishiga olib keladi.

Guruhda ishlash



4-topshiriq. Mehr va mehribonlik haqidagi maqollarni partadoshingiz bilan birga sharhlang.

Hayot yaxshi ishlar uchun beriladi.

Mehr – gul, qahr – tikan.

Mehr – insonning xazinasi.

Uyat yuzda bo‘lar, mehr – ko‘zda.

Mustaqil tayyorlash uchun topshiriq



Insonlarga, tabiatga va hayvonot olami vakillariga mehrli bo‘lishga namuna bo‘lgan adabiy-badiiy asar, hujjatli yoki badiiy film, san’at asarlaridan (rasm, fotosurat) namunalar keltiring.









11-MAVZU: EZGU ORZULAR RO‘YOBI

Bugun quyidagilarni o‘rganasiz:

1. Tirishqoqlik bilan mehnat qilish nimani anglatadi?
2. G‘alaba va mag‘lubiyatlarning sabablarini qanday tahlil qilish kerak?
3. Qanday qilib tashabbus ko‘rsatish va maqsadga erishish mumkin?



Diqqat bilan o‘qing

BIR KOMPANIYA TARIXIDAN

Kollejda tahsil oladigan uch do‘st kunlarning birida ajoyib g‘oyani o‘ylab topishdi. Ular sayohatchilar uchun ijaraga o‘z xonadonlaridan joy, havo to‘ldirilgan to‘shaklar hamda nonushta taklif etishga qaror qilishdi.

Bu haqiqatan ham ajoyib va o‘ziga xos g‘oya bo‘lib, u haqda hali hech kim o‘ylamagan edi. Uch do‘st o‘z g‘oyalarining muvaffaqiyatiga qat’iy ishonardilar.

Biroq ishni yo‘lga qo‘yish uchun mablag‘lari yo‘q edi. Buning uchun ular ko‘plab sarmoyadorlarga murojaat qilishar va har safar rad javobini olishardi.

Shunday bo‘lsa-da, ular tushkunlikka tushmay o‘z muvaffaqiyatlariga ishonishdi. Mablag‘ yig‘ish maqsadida prezident saylovi bo‘layotgan vaqtda, jo‘xoridan tayyorlangan shirinliklarni prezidentlikka nomzodlar surati tushirilgan maxsus qutichalarda sotishni ham yo‘lga qo‘yishdi. Uni sotib olgan odamlar ushbu suratlarni o‘z jamlanmalarida to‘plashlari mumkin edi.

Hozirgi vaqtda ushbu tashviqot ortidan 500 dan ortiq xodimlarga ega yirik kompaniya tashkil topib, 3 qavatli binoda o‘z faoliyatini davom ettirmoqda. Uning filiallari dunyoning eng yirik 10 ta shahrida joylashgan. Ushbu kompaniya xizmatlaridan 150 million kishi foydalanadi. Bugungi kunda ushbu kompaniyaning qiymati 25,5 milliard AQSh dollariga teng.



“Hamyoningda bir chaqa qolmaganida, o‘ta tartibli va mas’uliyatli bo‘lib qolasan”, – degan edi ushbu kompaniya ta’sischilaridan biri.

Topshiriqlarni bajaring



1-topshiriq. “Aqliy hujum”.

Hozir siz:

1. Nimani xohlayapsiz?
2. Nimani bajara olasiz?
3. Nimani bajarishingiz zarur?

2-topshiriq. Quyidagi hikmatlarni tahlil qiling:

Men o‘zimni shunday tutayki, hech kim mening to‘g‘rimda biron yomon gap ayta olmasin.

Aleksandr Pushkin, rus adibi

Donishmand va olimlarning xulqlaridan o‘rnak olish yaxshi xulqni tiriltiradi, yomonni yo‘q qiladi.

Abu Rayhon Beruniy

3-topshiriq. Tugallanmagan fikrlarni davom ettiring.

1. Bizning sinfimizda ko‘plab tirishqoq o‘g‘il-qizlar bor. Masalan: ... .
2. Men o‘z hayotimda qanday qilib qat’iyatlilik ko‘rsatganimga misol keltira olaman. Kunlarning birida...

4-topshiriq. Matn ichida bo‘sh qoldirilgan so‘zlarning o‘rnini so‘zlar bankidan foydalanib to‘ldiring.

1. Faqat ... odamgina o‘qish va sportda yaxshi natijalarga erisha oladi. ... hammaga zarur. Zero, ... o‘quvchigina ko‘zlagan maqsadlariga qadam-baqadam, reja asosida, boshqa narsalarga chalg‘imagan holda erisha oladi.
2. Buyuk ilmiy kashfiyotlar ... ga ega insonlar tomonidan ixtiro qilingan. Aynan shunday odamlargina ko‘zlagan maqsadlariga erishishda qiyinchiliklardan cho‘chimay qadam bosadi.

   ... inson nafaqat jismoniy harakatlarida namoyon qilishi, balki atrofdagilarga doimiy e’tibor ko‘rsatishga qodir bo‘lishi kerak. Bunday insonni hamma hurmat qiladi.

   ... shaxslararo mustahkam munosabatlarni o‘rnatishga yordam beradi. Bunday munosabatlar sezgirlikni, o‘zlariga va boshqalarga e’tiborni kuchaytirishni talab qiladi.

So‘zlar banki: ishtiyoq, qat’iyatlilik, maqsad, maqsadli, xushmuomala, xushmuomalalik.



Diqqat bilan o‘qing

Tirishqoqlik xislati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- hayotingizda muvaffaqiyatga erishishga imkon beradi;
- maqsad sari intilishda diqqat-e’tiboringizni jamlashga yordam beradi;
- o‘z kuchingizga bo‘lgan ishonchni jismonan va ma’nan namoyon etadi;
- to‘siqlarni yengib o‘tishga o‘rgatadi;
- aksariyat muammolarni yechish va maqsadingizga erishishingizda ko‘maklashadi;
- to‘siqlarni yengib o‘tishda kuch bag‘ishlaydi.



Maslahatlar

Tirishqoqlik va qat’iyatlilik

1. Uka va singillaringizni kuzating. Har bir jismonan sog‘lom bola ko‘plab urinishlar bilan o‘zi mustaqil oyoqqa turishga erishadi.
2. O‘zingizga diqqatli bo‘ling. Aniq belgilangan maqsadga erishishga intilish tirishqoqlik va qat’iyatlilikni rivojlantiradi.
3. Vaziyatlarni to‘g‘ri baholang. Omadsizlik va xatolarga duch kelganda maqsaddan og‘ish kerak emas, balki unga erishish yo‘llarini izlang.



4. Muzokaralarda ishtirok eting. O‘zingizning haqligingizni asoslagan holda isbotlash tirishqoqligingizni kuchaytiradi.
5. Me’yorlarga rioya eting. Tirishqoqlikning yo‘qligi tushkunlikka va qat’iyatsizlikka yetaklaydi. O‘ta tirishqoqlik esa qaysarlikka va xayolparastlikka olib boradi. O‘rta yo‘lni tanlang.



Topshiriqlarni bajaring



5-topshiriq.

Qat’iyatlilik zinasi. Daftaringizga 10 ta zinapoya chizing. Zinalarning boshi “qat’iyatsizlik” bo‘lsa, uning eng oxiri “qat’iyatlilik”dir. Siz hozirgi holatingizda qaysi zinada turibman, deb hisoblaysiz?


Mustaqil tayyorlash uchun topshiriq

Yaqinlaringiz, tanishlaringiz, qo‘shnilaringiz orasida o‘zining tirishqoqligi va qat’iyatliligi sababli yuksak natijalarga erishgan insonlar hamda ularning yutuqlari haqida daftaringizga yozing.

12-MAVZU: MAQSADIM – MENING ISHTIYOQIM

Bugun quyidagilarni o‘rganasiz:

1. Ishtiyoq nima va u nimaga kerak?
2. Maqsadlarga erishishga nima to‘sqinlik qiladi?
3. Maqsadga erishish yo‘lini to‘g‘ri tanlash, turli muammolarni hal qila olish va qarorlarni qanday qabul qilish mumkin?




Diqqat bilan o‘qing

Hayotda har bir insonga o‘qish va mehnat qilish uchun bir xil imkoniyatlar beriladi. Ammo yutuqlar turlicha bo‘ladi. Bu esa ishtiyoqqa bog‘liq. Ishtiyoqli odamni qanday bilish mumkin? Avvalambor, bunday inson maqsad sari intilgan bo‘ladi. Nima istashini biladi va to‘siqlarni yengib o‘tib, oldinga harakat qiladi. O‘z maqsadlariga erishishida unga ichki motivatsiya yordam beradi.

Motivatsiya (ishtiyoq) – u yoki bu narsa bilan shug‘ullanish istagi.

Oldingizga qo‘ygan maqsadlaringizga erishish uchun har qanday qiyinchiliklardan va to‘siqlardan qo‘rqmasligingiz kerak. Bu yo‘lda uchragan to‘siqlar siz uchun qo‘yilgan imtihondir. Imtihondan esa eng kuchlilargina o‘ta oladi.





Topshiriqlarni bajaring

1-topshiriq. Yuqoridagi chizmadan foydalanib, o‘z oldingizga maqsad qo‘ying va uni shakllantiring. Chizmani daftaringizga ko‘chiring.

Diqqat bilan o‘qing

Hikoya

Bir yo‘lovchi dengiz bo‘yida ketayotsa, qum yuzasidan nimalarnidir olib, dengizga uloqtirayotgan bolaga ko‘zi tushibdi. Yaqinroq borib qarasa, bolakay qumdan dengiz yulduzlarini olayotgan ekan. Uning atrofidagi millionlab dengiz yulduzlari qirg‘oqni butunlay qoplab yotar, hattoki yer ko‘rinmasdi.

– Bu dengiz yulduzlarini nega dengizga uloqtiryapsan? – deb so‘rabdi yaqinroq kelib yo‘lovchi.

– Agar ular qirg‘oqda tonggacha qolsa, nobud bo‘ladi, – deb o‘z ishini to‘xtatmay javob beribdi bolakay.

– Biroq bu telbalik-ku! – deb qichqiribdi yo‘lovchi. – Atrofingga qara! Bu yerda millionlab dengiz yulduzlari bor-ku, hatto qirg‘oqning qumi ham ko‘rinmayapti. Sening harakating hech nimani o‘zgartirmaydi!

Bolakay keyingi dengiz yulduzini qo‘liga olibdi, bir soniya o‘yga cho‘mibdi va uni dengizga uloqtirib, shunday javob beribdi:

– Yo‘q, mening harakatlarim aynan qo‘limdagi jonzot uchun ko‘p narsani o‘zgartiradi.

Shunda yo‘lovchi ham dengiz yulduzlaridan birini olib, dengizga tashlay boshlabdi. Kechga borib, dengiz sohilida ko‘plab odamlar paydo bo‘libdi, ularning har biri dengiz yulduzlarini olib, dengizga tashlar edi. Quyosh chiqqanida sohilda birorta ham qutqarilmagan dengiz yulduzi qolmagandi.



Savollarga javob bering

2-topshiriq.

1. Bolaning oldiga qo‘ygan maqsadiga erishishida nima yordam berdi: qat’iyatlilikmi yoki maqsadga intilish?
2. Motivatsiya va qat’iyatlilik nimalarda namoyon bo‘ladi?



Diqqat bilan o‘qing

Ba’zi bir insonlar o‘z oldilariga katta maqsadlarni qo‘yadilar. Ammo ilk marotaba muvaffaqiyatsizlikka duch kelishlari bilanoq, undan voz kechadilar. Buning sababi – ustun kelgan dangasalik, ikkilanish, shubhalanish, o‘ziga va o‘z kuchiga ishonmaslik, qat’iyatsizlik.

Dangasalik qilib dars tayyorlamasangiz qanday oqibatlar yuzaga keladi?



Topshiriqlarni bajaring

3-topshiriq. Jadvalni daftaringizga ko‘chiring va chap ustundagi iboralarni o‘qing. Siz biror bir ishni qilmoqchi bo‘lganingizda bu iboralarning aynan qaysilarini ko‘p takrorlaysiz? Ushbu jumlalarga zid ma’noli gaplar tuzing va ularni ikkinchi ustunga yozing.

Ishtiyoq yo‘q	Ishtiyoq bor
1. Men bugun charchadim!	1. Men bugun bu ishni qilishim shart!
2. Bugun mening vaqtim yo‘q!	2.
3. Bugun mening tizzam og‘riyapti!	3.
4. Men bugun tayyor emasman!	4.
5. Bu ishni ertaga qilaman!	5.



Diqqat bilan o‘qing

Agar siz bu iboralarni aytib, o‘zingizni oqlashga va bugun shu ish bajarilmasligini asoslashga urinsangiz, demak, sizda ichki ishtiyoq yo‘q. Sizni dangasalik yengdi va siz biror qadam ham maqsadga yaqinlashmadingiz. Ichki ishtiyoqingizni o‘zgartirishga harakat qiling. Yuqorida berilgan iboralar ma’nosiga qarama-qarshi ma’noli gaplarni tuzing va daftaringizga yozing.

Insonda “Men hozir ega bo‘lganimdan ko‘ra, ko‘prog‘iga erisha olaman”, degan ishonch bo‘lishi lozim. Agar insonda ishtiyoq bo‘lsa, maqsadi sari intilsa, qat’iyatli, tirishqoq bo‘lsa, albatta, oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishadi.

Zahiriddin Muhammad Bobur 12 yoshidan davlatni boshqara boshlagan. U bolaligidan barcha temuriy shahzodalar kabi maxsus tarbiyachilar, yirik fozil-u ulamolar ustozligida harbiy ta'lim, fiqh ilmi, arab va fors tillarini o'rganadi, ko'plab tarixiy va adabiy asarlar mutolaa qiladi, ilm-fanga, she'riyatga qiziqa boshlaydi. Dovyurakligi va jasurligi uchun u yoshligidan "Bobur" ("Sher") laqabini oladi.





Yozuvchi Chingiz Aytmatov 5 yoshligidan tarjimonlik bilan shug'ullangan. Shuningdek, u yoshligidan badiiy adabiyotga ulkan mehr qo'ygan, nasriy asarlar yaratish bilan astoydil shug'ullangan. Uning nomini xalqaro miqyosda mashhur qilgan va jahon xalqlarining ko'plab tillariga tarjima qilingan asar "Oq kema" qissasidir.

Akademik Leo Landau 14 yoshida Boku universitetiga o'qishga qabul qilinadi. 19 yoshida esa to'rtta ilmiy kitob chop ettiradi. Fizikani hayotining bir qismiga aylantirgan yosh olim oradan hech qancha vaqt o'tmay dunyoning nazariy fiziklari o'ntaligiga kiradi.





Aleksandr Griboyedov – yozuvchi va bastakor. U yoshligidan italyan, nemis, fransuz va ingliz tillarini yaxshi bilgan. 11 yoshida Moskva universitetining internat maktabiga o‘qishga kirgan va 6 yil ichida uchta fakultetni bitirgan.



Atoqli olim Sergey Akopovich Mergelyan yoshligidan matematikaga qiziqqan. U bir o‘quv yilida 8-, 9- va 10-sinflarning imtihonini topshirgan. 16 yoshida universitetning II kursiga qabul qilingan. Bir yarim yilda fan nomzodi darajasini egallab, 20 yoshida fan doktori bo‘lgan.



Savollarga javob bering

4-topshiriq.

1. Bu mashhur insonlarni qanday xislatlar birlashtiradi?
2. Sizning fikringizcha, ular qanday qiyinchiliklarni yengib o‘tgan?
3. O‘z harakati bilan yuqori natijalarga erishgan tanishlaringiz bormi?
4. O‘z maqsadingizga qanday erishish mumkinligi haqida fikringizni ayting.
5. Insonning maqsadga erishishiga nimalar to‘sqinlik qiladi?



Mustaqil tayyorlash uchun topshiriq

O‘zingizning motivatsion zinapoyangizni yarating va daftaringizga yozing.

13–14-MAVZU: HAR BIR INSON HURMATGA LOYIQ


Bugun quyidagilarni o‘rganasiz:

1. Nega ba’zi insonlar bir-biriga o‘xshaydi, ba’zilari esa o‘xshamaydi?
2. Barcha insonlar o‘z maqsadlariga erishishlari mumkinmi?
3. Imkoniyati cheklangan insonlarga qanday muomala qilish kerak?



Diqqat bilan o‘qing

Sayyoramizda 7,7 milliarddan ortiq odam yashaydi. Hamma odamlar bir-biridan millati, yashash joyi, terisining rangi, muloqot tili, madaniyati, xarakteri, sevimli mashg‘ulotlari va qiziqishlari bilan farq qiladi. Biroq faqat shular bilangina farqlanishmaydi, ba’zi bir muayyan imkoniyatlari cheklangan odamlar ham mavjud bo‘lib, ulardan ba’zilarining ko‘rinishi farq qilishi, eshitish, ko‘rish qobiliyati, harakati cheklangan bo‘lishi mumkin. Lekin ular hamma narsani tushunadilar, o‘ylaydilar, his qiladilar, do‘st bo‘lib, seva bilishadi. Ularning ham orzu va maqsadlari bor, o‘qishni, o‘ynashni va baxtli bo‘lishni xohlaydilar. Ular hamma insonlar kabi teng huquqqa egalar.



Bunday odamlarning sog‘lig‘i bo‘yicha muammolari tug‘ma yoki orttirilgan (yo‘l-transport hodisasi va yiqilish yoki kasallik natijasida) bo‘lishi mumkin. Biz har xilmiz va bir xilmiz!

Dunyoda biror bir sababga ko‘ra jismonan cheklovlarga ega, biroq hayotda katta yutuqlarga erishib, millionlab insonlarga namuna bo‘lgan odamlar ko‘p.

O‘ZBEKISTON PARALIMPIADACHILARI

Sport hayotimizda muhim rol o‘ynaydi. U nafaqat sog‘liqni, balki inson ruhini ham mustahkamlaydi. Sport organizmni chiniqtiradi, irodalilik, tirishqoqlik va chidamlilikni oshiradi. Tirishqoqlik va iroda kuchining yorqin namunasi mamlakatimiz paralimpiadachilaridir. Ularning orasida sportda erishgan yutuqlari bilan dunyoga tanilgan insonlar bor.





O‘zbekiston Paralimpiya qo‘mitasi sportchilari gimnastika, badiiy gimnastika, dzyudo, suzish, badminton, stol tennisi, yengil atletika va boshqa sport turlarida ishtirok etishmoqda. Ular qatorida Mansur Abdurashidov, Husniddin Norbekov, Farrux Mirzaqulov, Miran Saxatov, Aleksandr Svechnikov, Doniyor Soliyev, Muslima Odilova, Fotimaxon Alimova kabi mamlakatimizning ko‘plab mard va jasur sportchilari bor.

E’TIROFGA MUNOSIB INSONLAR




Yozuvchi, Nobel mukofoti laureati **Stiven Uilyam Xoking** yoshlik davridayoq butunlay falaj bo‘lib qolishiga qaramay, faol hayot kechirgan. U kompyuter ekranidagi kursorni yagona harakatlanadigan yonoqdagi mushaklari bilan boshqargan va harflarni so‘zlarga qo‘shib yozgan. Ushbu so‘zlarni maxsus qurilma ovozga aylantirgan. Shu tarzda u boshqalar bilan muloqot qila olardi. Shunday qilib, u o‘zining eng mashhur kitoblarini yozdi. 2007-yilda u samolyotda vaznsizlikda parvoz qildi. Fanni rivojlantirishga qo‘shgan hissasi uchun 30 dan ortiq medal va mukofotlar bilan taqdirlandi.



Erik Vayxenmayer – sayohatchi, ko‘zi ojiz bo‘lgan holda Everest cho‘qqisiga chiqqan sportchi. 13 yoshida butunlay ko‘rmay qoladi va faqat sportga bo‘lgan ishtiyoqi uni tushkunlikka tushishiga imkon bermaydi. U ko‘plab sport turlarini sinab ko‘rdi va so‘nggi qarori – tog‘ga chiqishga ahd qildi. Amerikalik bu sportchi dunyoning eng yuqori tog‘ cho‘qqilarini zabt etishga intildi va 2008-yilda buni amalga oshirgan yagona ko‘zi ojiz odam bo‘ldi. Denali, Kilimanjaro, Akonkagua, Elbrus, Vinson cho‘qqisi, Jaya va Everest Erik paypaslash orqali zabt etgan cho‘qqilardir. Bugungi kunda u insonlarni taslim bo‘lmaslikka, sport bilan faol shug‘ullanishga chorlamoqda.





Savollarga javob bering




1-topshiriq.

1. Nega bu insonlar o‘z imkoniyatlari cheklangan bo‘lishiga qaramay, katta muvaffaqiyatlarga erishganlar?
2. Bunday insonlarga jamoat yordami kerakmi?
3. Bunday insonlar qanday qilib boshqalarga o‘rnak bo‘lishadi?

Topshiriqlarni bajaring



2-topshiriq. Fotosuratlarda nimani ko‘ryapsiz, tushuntiring.





Savollarga javob bering

3-topshiriq.

1. Sizningcha, bu odamlar nima bilan shug‘ullanyaptilar?
2. Nima uchun ular har qanday qiyinchiliklarni yengib, o‘z sevimli mashg‘ulotlari bilan shug‘ullanishyapti?
3. Bu odamlarga qarab nimani his qildingiz?




Mustaqil tayyorlash uchun topshiriq

Rasmlarga qarang. Ushbu belgilar nimani anglatadi? Daftaringizga yozing.







Diqqat bilan o‘qing

YUGURUVCHI SPORTCHILAR TARIXI



Sietlda o‘tkazilgan paralimpiya o‘yinlarida jismonan va aqlan zaif bo‘lgan to‘qqiz nafar sportchilar yuz metrlik yugurish yo‘lakchasi boshida saf tortishdi. Yugurishga start berilgach, barcha sportchilar marraga birinchi bo‘lib yetib borish va g‘olib bo‘lish uchun imkonlari boricha, oldinga intilishdi. Ularning orasida bir yigitning oyoqlari chalishib ketdi va zo‘rg‘a

bir-ikki qadam tashlab, o‘tirib qoldi va yig‘lab yubordi. Qolgan sakkiz nafar sportchiga uning yig‘i tovushi eshitildi. Ular avval sekinlashishdi, so‘ngra yugurishdan to‘xtab, ortga qaytishdi. Ularning barchasi ortda qolgan safdoshi yoniga kelib, uni o‘rnidan turg‘azishdi. Keyin esa barcha – to‘qqiz nafar ishtirokchi finish chizig‘igacha qo‘l ushlashib, birga yetib kelishdi. Stadionga yig‘ilgan barcha muxlislar ularni o‘n daqiqa tik turgancha olqishlashdi.



Guruhda ishlash

4-topshiriq. Yuqoridagi matn asosida savollarga jabob bering. Partadoshingiz bilan javobingizni muhokama qiling.

1. O‘z kechinmalaringizni, nimani his qilganingizni yozib bering.
2. Nega qolgan sakkiz nafar sportchi ortga qaytdi?
3. Siz ortda qolgan va yiqilib tushgan sportchini qanday qo‘llab-quvvatlagan bo‘lardingiz?
4. Ushbu sportchilar qanday insoniy fazilatlarni namoyon etishdi?



Diqqat bilan o‘qing

INKLYUZIV TA’LIM

Imkoniyati cheklangan insonlar ham oilada, jamiyatda o‘z o‘rnini topishga intiladilar. Bunda ularga inklyuziv ta’lim yordam beradi.

Inklyuziv ta’lim – mavjud jismoniy, intellektual, ijtimoiy, emotsional, tilga oid va boshqa xususiyatlaridan qat’i nazar, har bir shaxsga umumiy ta’lim muassasalarida o‘qish imkoniyatini beruvchi ta’lim shakli. Inklyuziv ta’lim tamoyili ham imkoniyati cheklangan bolalarning ijobiy emotsional va ijtimoiy rivojlanishlari uchun oilalarda yashashlari va tengdoshlari bilan oddiy maktabda o‘qishlari shartligini anglatadi. Inklyuziv ta’lim bag‘rikenglikni rivojlantiradi.



Bag‘rikeng inson atrofidagi boshqa odamlarning huquqlarini poymol qilmay, murosa bilan muammolarini hal qila oladi. Imkoniyati cheklangan insonlar ham to‘laqonli hayot kechirish, imtiyozlardan foydalanish va jamiyatda yashash huquqiga egadirlar.



Guruhda ishlash

5-topshiriq. Partadoshingiz bilan birga bajaring.

Tasavvur qiling, siz sinfdoshingiz bilan maktabda ham, hayotda ham do‘stsiz. Vaqtni maktabda birga o‘tkazasiz, shaxmat va musiqa to‘garaklariga ham birga borasiz. Endi kaftingiz bilan bir ko‘zingizni yoping. Do‘stingizga bo‘lgan tuyg‘ularingizda nima o‘zgardi? Sizga nisbatan ham unda nima o‘zgarganligini so‘rang. Keyin partadosh sherigingizdan kafti bilan bir ko‘zini yopishini so‘rang. Uning sizga bo‘lgan munosabati qanday o‘zgarganligini va sizning unga bo‘lgan munosabatingiz o‘zgargan-o‘zgarmaganini aytib bering.



Mustaqil tayyorlash uchun topshiriq

Ushbu fotosuratlarni ko‘rib chiqing va imkoniyati cheklangan kishilarning qanday sevimli mashg‘ulotlar bilan shug‘ullana olishlari mumkinligi haqida o‘ylang. Misollar keltirib, daftaringizga yozing.









15-MAVZU: O‘ZGALARGA YORDAM BERIB, O‘ZINGDA INSONIYLIKNI KASHF ET

Bugun quyidagilarni o‘rganasiz:

1. Nima uchun atrofdagilarga yordam berish kerak?
2. Atrofdagilarga qanday yordam berish mumkin?

Diqqat bilan o‘qing



13-noyabr – Butun jahon mehribonlik kuni (*World Kindness Day*). Ushbu ajoyib bayram Butun jahon mehribonlik harakati tashkilotining tashabbusi bilan vujudga kelgan. U xayriya tashkilotlarida ishlaydigan va og‘ir ahvolga duch kelganlarga beminnat yordam beradigan turli mamlakatlardan ko‘ngillilarni birlashtiradi.



Ko‘ngillilar o‘z ixtiyori bilan xolisona yaxshilik qiladigan hamda odamlarga, jamiyatga yordam berish uchun o‘z vaqti va kuchini sarflashga tayyor bo‘lgan insonlardir.





O‘zbekiston ko‘ngillilari Moskvadagi Xalqaro ko‘ngillilar forumida. Ularning shiori: “Har kuni yaxshiliklar qiling! Yordamingizga muhtoj bo‘lganlarga yordam bering!”



Diqqat bilan o‘qing

Boshqalarga yordam berish va yaxshiliklar qilish qiyin ish emas. Atrofga nazar tashlang, shoshilmang. Shunda bajarilishi mumkin bo‘lgan ishlar, sizning yordamingizga muhtoj bo‘lganlar ko‘pligini ko‘rasiz.

Yordam – bu ajoyib so‘z, yaxshi ishlar orqali boshqa odamlar bilan muloqot qilishning eng yaxshi usuli. Insondagi insoniylik darajasi atrofdagilarga yordam berish istagining qanchalik samimiyligi bilan belgilanadi. Har birimiz o‘z do‘stimizga yoki sinfdoshimizga, onamiz, otamiz, qo‘shnimizga yordam berishimiz mumkin. Faqat ulardan “Sizga qanday yordam berishim mumkin?” yoki “Sizga yordam bera olamanmi?” deb so‘rash kifoya. Juda oddiy bo‘lgan bu savol ezgu ishlarimizning boshlanishi bo‘ladi.



Savollarga javob bering



1-topshiriq.

1. Yuqoridagi rasmlarni diqqat bilan kuzating va tasvirlangan holatlarni izohlang.
2. Ayting-chi, siz qaysi holatlarda yordam bera olardingiz?
3. O‘ylab ko‘ring, agar siz biror vaziyatga bee’tibor o‘tib ketib, yordam bermagan bo‘lsangiz, nima sodir bo‘lishi mumkin edi?

Diqqat bilan o‘qing



Baxt moddiyat bilan o‘lchanmaydi. Baxtni to‘la-to‘kis tortiq qiluvchi muhabbat, ishonch va insoniylik kabi tuyg‘ular ham bor.

Yordamga muhtoj bo‘lgan inson uchun o‘ziga mutlaqo begonalarning ham yordam berishga tayyorligini his qilish baxtning bir parchasidir. Agar imkon topsangiz, siz ham yordamga muhtoj insonlarga qo‘l cho‘zing. Har qanday yordamingizni ayamang! Ehtimol, siz kichik bir yordamingiz bilan kimningdir hayotini mazmunli qilishingiz, eng baxtli lahzalarga sababchi inson sifatida xotirasiga muhrlanishingiz, balki uning eng yaqin insoni bo‘lib qolishingiz mumkin.

Savollarga javob bering



2-topshiriq.

1. Yordam nima? Tushuntiring.
2. Nima uchun yordam berish kerak?
3. Yordam qanday bo‘ladi?
4. Ko‘ngillilar kimlar? Nima uchun ular boshqalarga yordam berishadi?

Topshiriqlarni bajaring



3-topshiriq. Quyidagi vaziyatlarda yuzaga keladigan muammolarni hal etishda yordam bering. Vaziyatlarni tahlil qiling, ushbu vaziyatda qanday yordam berish mumkinligini hal qiling. Bunda yoshingiz va imkoniyatlaringizni hisobga olishingiz kerak.


1-vaziyat. Qo‘shningizning kirish eshigi qulfi sinib qoldi. U uyiga kira olmayapti.

2-vaziyat. Sinfdoshingiz oyog‘ini sindirib oldi. U uyda qolib, darslarga bora olmayapti va barcha fanlardan orqada qolyapti.

3-vaziyat. Qo‘shningiz yolg‘iz yashaydigan keksa buvi. Uning oyoqlari og‘rigani sababli ko‘chada uzoq yurolmaydi.

4-vaziyat. 3–4 yoshli qizaloq ko‘chada baland ovozda yig‘layapti. U adashib qolgan.

5-vaziyat. Do‘stingiz o‘tilgan mavzuni yaxshi o‘zlashtira olmaganligi sababli past baho oldi. U judayam xafa.



Diqqat bilan o‘qing



Bu ikki fotosuratdagi bolakayning yoshidagi farq bir yil bo‘lib, ular butun dunyoga tarqalgan. Bu mehribonlik va yordam qo‘lini uzatish bir kishining hayotini o‘zgartirishi mumkinligining isbotidir. Butun insoniyatga yordam berishga harakat qilishning hojati yo‘q – muhtoj odamga yordam bering. Anya Ringgren Loven ochlikdan holdan toygan ikki yoshli bolani ko‘chada ko‘rib qolib, uyidan boshpana beradi. Unga Hope (Umid) deya ism qo‘yadi. Hozir Hope sog‘lom va baxtlidir.



Mustaqil tayyorlash uchun topshiriq




1. Yopishtiriladigan qog‘ozlar to‘plamini oling, har kuni oilangiz, do‘stlaringiz, sinfdoshlaringiz, qo‘shnilaringiz, tabiat, shahar, atrof-muhitga yordam bergan yaxshi harakatlaringiz va ishlaringizni alohida varaqqa yozing. Ushbu yopishtiriladigan qog‘ozlarni yutuqlar devoriga yopishtirib boring. Bir haftadan keyin ushbu devorni suratga oling. Ehtimol, hammani hayratda qoldirarsiz!!!

2. “Boshqalarga ko‘mak ber” filmini tomosha qiling va o‘z taassurotingizni daftaringizga yozing.



Filmning sujeti Trevor ismli samimiy va sodda bola haqida hikoya qiladi. Kunlarning birida maktabda bolalarga hech qanday natija olib kelmaydigan topshiriq beriladi, bu oddiygina aql-idrok o‘yinidan boshqa narsa emasdi. Biroq Trevor ko‘pgina odamlarga yordam berishi kerak bo‘lgan qiziqarli tizimni o‘ylab topadi.

Uning g‘oyasi uch notanish kishiga beg‘araz yordam berish, ulardan har biri yana uch notanish kishiga yordam berish (“yaxshilikni navbatdagiga uzatish”)idan iborat edi.




Nazariy jihatdan ezgu ishlar geometrik ko‘payish shaklida o‘sishi kerak edi:

3 → 9 → 27 → 81 → 243 → ???

Trevorning onasi va buvisi orqali “Boshqalarga ko‘mak ber” g‘oyasi boshqa shaharlarga tarqalgan holda o‘z “hayotini” boshlaydi. Bu g‘oya jurnalistlargacha yetib boradi. Jurnalistlardan birini o‘zaro yordam tamoyili juda qiziqtirib qo‘yadi va u g‘oya asoschisi – Trevorga qadam-baqadam yaqinlasha boshlaydi. Buning uchun Los-Anjelesdan Las-Vegasgacha sayohat qiladi va u ta’lim oladigan maktabga borib, undan intervyu oladi.

3. Quyida berilgan rasmda qizchaning ezgu amali sababli yosh niholning o‘sib katta daraxt bo‘lgani, meva tuggani tasvirlangan. Siz ham shunday ezgu amallaringizdan birini va uning natijasi qanday bo‘lganligini rasm daftaringizda tasvirlang.



16-MAVZU: HAMKORLIK – MUVAFFAQIYAT GAROVI

Bugun quyidagilarni o‘rganasiz:

1. Nima uchun jamoa bo‘lib ishlash kerak?
2. Boshqalar bilan muvaffaqiyatli hamkorlik qilish va jamoada bo‘lish uchun o‘zingizda nimani rivojlantirishingiz kerak?



Singapurdagi Osiyo chempionatida g‘alaba qozongan o‘zbek eshkakchilari.



O‘zbekiston kubogida “Paxtakor” jamoasining g‘alabasi.



Rio Olimpiadasida 70 nafar sportchi 14 ta sport turida yurtimiz sharafini himoya qildi.



Navoiy shahridagi “Qizilqum san’at g‘unchalari – 2019” XV yubiley bolalar ko‘rik-tanlovi.

Savollarga javob bering



1-topshiriq.

1. Fotosuratlardagi birlashgan insonlarni bir so‘z bilan nima deb atash mumkin?
2. Ular nima maqsadda birlashgan?
3. Sizning fikringizcha, qaysi omillar ularning g‘alaba qilishlariga yordam berdi?

Diqqat bilan o‘qing



Qadimda og‘ir sharoitlarda yakka tartibda yashash juda qiyin bo‘lgan. Shuning uchun odamlar doim birga yashaganlar yoki mehnat qilish uchun jamoaga birlashishga intilishgan. Bunday hamjamiyatda hammaning aniq belgilangan majburiyatlari bo‘lgan. Kimdir ov qilish, kimdir sabzavot va mevalarni yetishtirish, keksalar bolalarni tarbiyalash bilan shug‘ullangan, ularga o‘z bilimlarini va to‘plagan tajribalarini o‘rgatishgan. Muvaffaqiyatli ov natijasi ovchilarning guruhda qanchalik o‘zaro kelishib harakatlanishiga, ov rejasi va ularning o‘rni qanchalik to‘g‘ri belgilanib bajarilganiga bog‘liq bo‘lgan.

Hozirgi zamonda ham jamoada ishlay bilish, o‘zaro hamkorlik muhim hisoblanadi.

Hamkorlik – umumiy maqsadga erishish uchun bir qancha odamlarning birgalikdagi intilishi.

Jahon kubogida futbol bo‘yicha g‘alaba, ko‘p qavatli bino qurilishi, yirik supermarketlarning boshqarilishi, dengiz va suvosti kemalarining suzishi, kosmik kema va samolyotlarning uchishi, mobil telefonning ishlashi, televizorda multfilm namoyish etilishi – bular jamoada muvaffaqiyatli hamkorlik natijasidir. Barcha yirik loyihalarning muvaffaqiyati bu vazifalarning to‘g‘ri taqsimlanishidir. Jamoaning kuchli va kuchsiz tomonlarini bilib, ishni shunday tashkil qilish zarurki, bunda uning har bir a’zosi yanada tezroq va yaxshiroq ishlay oladigan bo‘lishi kerak. Bunday yondashuv jamoani g‘alabaga olib kelishi shubhasiz.

Savollarga javob bering



2-topshiriq.

1. Sodda gaplar yordamida hamkorlikni tushuntirib bering.
2. Tengdoshlaringiz bilan qilgan hamkorligingiz haqida gapirib bering.



Topshiriqlarni bajaring

3-topshiriq. Maktabdagi shanbalikda sizning jamoangizga hovlini supurish, axlatlardan tozalash, gul va daraxtlarga suv quyish, qushlarga don berish, doskani artib qo‘yish topshirig‘i berilgan. Vaqtni tejash uchun ishni qanday tashkillashtirgan bo‘lardingiz? Nima uchun?



Diqqat bilan o‘qing

Har doim g‘alaba qozonadigan kuchli va muvaffaqiyatli jamoa bo‘lish uchun o‘zaro hamkorlik qilishni o‘rganish zarur. Buning uchun esa quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lish va ularni rivojlantirish kerak:

- halollik – jamoada halol bo‘ling, shunda jamoa sizga ishonadi;
- ishonch – jamoangizga ishoning;
- samimiylik – g‘oyalaringiz bilan o‘rtoqlashing, jamoa g‘alaba qozonishiga yordam beradigan bilimlarni sir tutmang;
- o‘zaro yordamlashish – jamoaning boshqa a’zolariga ko‘maklashing, ularni qo‘llab-quvvatlang, ruhlantiring;
- mas’ullik – odil qaror qabul qiling, qarorlar uchun javob bering, o‘z vazifalaringizni bajaring;
- qat’iylik – qiyinchiliklar va omadsizliklar oldida hech qachon to‘xtamang;
- o‘qish istagi – jamoa ishlashi uchun zarur bo‘lgan nafaqat yangi bilimlarni, balki jamoangizning hamma yaxshi jihatlarini egallashga intiling.




Guruhda ishlash

4-topshiriq.

Daftar varag‘ini oling. Ikki nafardan iborat guruhga bo‘lining. Qo‘llarni shunday ushlangki, har bir guruh a’zosining bir qo‘li bo‘sh bo‘lishi kerak. Sizning vazifangiz bo‘sh qo‘lingiz yordamida daftar varag‘idan qog‘oz samolyotcha yasash. Topshiriqni tez bajargan jamoa g‘olib bo‘ladi. Agar siz topshiriqni birinchi safar bajara olmasangiz, tushkunlikka tushmang, yana bir bor urinib ko‘ring va siz muvaffaqiyatga erishasiz.

O‘yin tugagandan keyin bir-biringizga nazar tashlang, tabassum qiling va bir-biringizning qo‘lingizni siqib “rahmat”, deb qo‘ying.



Mustaqil tayyorlash uchun topshiriq

1. Quyidagi fikrlarni o‘qing. Ulardan qaysi biri sizga ko‘proq yoqdi? Nega? Uni qanday tushunganingizni ifodalab bering.
2. Uni daftaringizga yozing va yodda saqlang.

Mashhurlik va yutuqlar odamlarni juda kuchli o‘zgartirib yuboradi.

Ravshan Ermatov, Xalqaro futbol hakami

Tadbirkorlikda barcha katta ishlar hech qachon bir kishi tomonidan bajarilmaydi, u jamoa a’zolari tomonidan bajariladi.

Stiv Jobs, “Apple” korporatsiyasi asoschisi

17–18-MAVZU: JONIVORLARGA G‘AMXO‘RLIK QILISH

Bugun quyidagilarni o‘rganasiz:

1. Hayvonlarga nisbatan rahm-shafqatli bo‘lish qanchalik muhim?
2. Uysiz hayvonlarga qanday g‘amxo‘rlik qilish va ularni qanday himoyalash mumkin?
3. Davlat uysiz hayvonlarni himoyalash uchun qanday g‘amxo‘rlik ko‘rsatadi?








Savollarga javob bering



1-topshiriq.

1. Yuqoridagi fotosuratlarda tasvirlangan ba'zi hayvonlarga qanday yordam berish haqida o'ylab ko'ring va takliflaringizni bering.
2. Jonivorlar ahvolini qanday belgilar bo'yicha aniqlash mumkin?
3. Siz ham nochor ahvolda qolgan hayvonlarga duch kelganmisiz?
4. Ularga qanday yordam bergansiz?

2-topshiriq.

Quyidagi vaziyatlarda qanday yo'l tutardingiz. Javobingizni asoslang.

1-vaziyat.

Siz maktabdan uyga qaytmoqdasiz. Yam-yashil bog'dan o'tayotib, begona bolalar daraxtdagi qushlarga tosh otayotganini, daraxt ostidagi maysalar esa tosh va patlar bilan qoplanganini ko'rib qoldingiz.

2-vaziyat.

Onangiz do'kondan sut, non, kolbasa va meva sotib olishni buyurdi. Siz mahsulotlar bilan to'lgan paketlarni ko'tarib uyga qaytmoqdasiz. To'satdan uyingizga kirish yo'lagiga ona mushuk va uning ikkita jajji bolachasi yugurib chiqdi. Ular juda ozg'in, qorni esa och edi.

3-vaziyat.


Bugun siz do'stingiz bilan bog'da sayr qilishga qaror qildingiz. Yo'lni kesib o'tayotganingizda, yo'l chetida mashina urib yuborgan katta it yotganini ko'rib qoldingiz. U zorg'a nafas olar, shikastlanganligi va yordamga muhtoj ekanligi ko'rinib turardi.

4-vaziyat.

Do'stingizga gapira oladigan to'tiqush sovg'a qilishdi. Do'stingiz juda xursand bo'ldi va mag'rurlandi, chunki hech kimda bunday qush yo'q edi. U maqtanib, hammaga qush haqida gapirib berardi. Biroq uyiga tashrif buyurganingizda to'tiqushning qafasi tozalanmaganligi, suvi iflosligi va oziqasi kamligini payqadingiz. To'tiqush esa avvalgidek gapirmas, tobora holsizlanib borardi.

5-vaziyat.

Bugun sinfingiz hayvonot bog'iga sayohatga boradi. U joyda katak va panjaralarga yaqinlashish va hayvonlarga ovqat berishni taqiqlovchi maxsus xulq-atvor qoidalari mavjud. Biroq sayohatdan oldin barcha bolalar cho'ntaklarini to'ldirib shokolad, karamel, shirin kulcha va mevalardan sotib oldilar.



Diqqat bilan o‘qing

Mushuklar, itlar va boshqa hayvonlar TIRIK mavjudotlardir. Ularda ham yurak uradi, tomirlarida qon oqadi, ochlik, sovqotish va og‘riqni his qilishadi, azoblanishadi, quvonishadi. Ular sizdan qo‘rqishlari va duch kelganda qochishlari yoki sizga ishonib oldingizga kelishlari, e’tibor qaratishingiz va ovqat berishingiz umidida ko‘zingizga termilishlari mumkin.

Ularni darhol silash, siypalash, o‘ynash, ayniqsa, baqirish va qo‘llarini silkitishga urinmaslik kerak. Daydi hayvonlar ko‘pincha holdan toygan, och, ehtimol, kasallangan bo‘lishadi. Ular odamlarning shafqatsizligiga duch kelgan bo‘lishlari mumkin, shuning uchun sizga ishonishmaydi yoki qo‘rqishadi va o‘zlarini himoya qilishga tayyor turishadi.



Topshiriqlarni bajaring

3-topshiriq. Quyidagilarni daftaringizga ko‘chiring va javob variantlarini tanlang.

1. Begona bolalar mushukni qiynashyapti. Men …
– to‘xtamay o‘taman, bu mening mushugim emas.
– mushukni himoya qilaman va uni tortib olaman.
– kattalarni yoki do‘stlarimni yordamga chaqiraman.
2. Mushuk sovuqda qolgan, kasal bo‘lgan yoki yaralangan. Men …
– to‘xtamay o‘taman, bu mening mushugim emas.
– uni uyga olib ketaman va davolashni boshlayman.
– veterinar klinikasiga qo‘ng‘iroq qilaman.
– kattalardan uni veterinar shifokorga olib borish uchun yordam so‘rayman.
3. Ko‘chada daydi it yotibdi (yuribdi). Balki u kasal yoki yaradordir. Men…
– to‘xtamasdan o‘tib ketaman.
– uning oldiga boraman, silashga harakat qilaman va u bilan o‘ynayman.
– veterinar klinikasiga qo‘ng‘iroq qilaman.
– hayvonlar saqlanadigan tashkilotga qo‘ng‘iroq qilaman.
– kattalardan uni veterinar shifokorga olib borish uchun yordam so‘rayman.

Diqqat bilan o‘qing



Odamlarning insoniylik, rahmdillik va hamdardlik darajasi nafaqat keksalar, nogironlar va bolalarga, balki g‘amxo‘rlik va e’tiborga muhtoj bo‘lgan barcha jonzotlarga bo‘lgan munosabati bilan ham belgilanadi. Biroq ba’zan odamlar hayvonlarga nisbatan juda shafqatsiz munosabatda bo‘lib, ularga ozor berishadi va azoblashadi.

Jonivorlarga qo‘pol munosabatda bo‘lish ko‘pincha insonning zaifligi tufayli yuzaga keladi. O‘zining ojizligi, qo‘rqoqligi, muammolarini hal qila olmasligi yoki uni ranjitganlarga javob berolmagani uchun himoyasiz jonzotlarga azob berib, go‘yoki o‘ch olishadi. Kuchli va jasur inson hech qachon kuchsizlarni xafa qilmaydi.





Mustaqil tayyorlash uchun topshiriq



Mashhur insonlarning quyidagi hikmatli so‘zlarini o‘qing va qanday tushunganingizni izohlang. O‘zingizga yoqqan iborani daftaringizga yozing.

Inson jonivorlarni yaxshi ko‘rmagunga qadar, ko‘nglining bir qismi uyg‘onmasdan qoladi.

Anatol Frans, fransuz yozuvchisi

Millatning buyukligi va ma’naviy rivojlanganligi uning hayvonlarga bo‘lgan munosabati bilan belgilanishi mumkin.

Mahatma Gandi, Hindiston siyosiy arbobi



Diqqat bilan o‘qing

O‘zbekistonda hayvonlarga shafqatsiz munosabatda bo‘lganlarga nisbatan javobgarlik (jarimadan qamoqqa olishgacha) belgilangan.

Bundan tashqari, jonivorlarga befarq bo‘lmagan ko‘ngilli fuqarolardan tashkil topgan “Mehr va oqibat” – hayvonlarni himoya qilish jamiyati ham mavjud.

Toshkentdan uzoq bo‘lmagan Qibray tumanida davlat tomonidan uysiz hayvonlarga “Hayot” nomli makon qurilishi uchun yer ajratilgan. Qurilish ishlari boshlangan, unda 500 dan ortiq hayvon mavjud. Bu yerda ko‘ngillilar va o‘zining bo‘sh vaqtida kelib, yordam ko‘rsatishga, ovqat berishga, hududni yig‘ishtirishga, kasal hayvonlarni davolashga hamda ular bilan o‘ynashga tayyor bo‘lgan kishilar ishlashadi.



Toshkentda ishga tushgan “Mushukkent” loyihasida IIBB xodimlari tomonidan uysiz mushuklar uchun o‘rnatilgan issiq uychalar.



Itlarni qutqargan FVV xodimlari.

Diqqat bilan o‘qing



Makonda bo‘lganlar omadli hisoblanadi, ularda ovqat va boshpana bor. Yana eng asosiysi – bu yerdagilarni ko‘rganda, yoqtirib qolib, o‘zi bilan olib ketishi mumkin bo‘lgan egasini topish imkoniyati mavjud. Ular hech narsaga qaramay, ko‘zlarga termilib, to‘xtovsiz dumini likillatgan holda, odamlarga ishonishni, kutishni davom ettirishadi.



“Hayot” – uysiz hayvonlar uchun boshpana.



– Siz meni yo‘qotib qo‘ydingizmi? Men... “Hayot”daman.

Savollarga javob bering



4-topshiriq.

1. O‘zbekistonda uysiz hayvonlarni himoya qilish uchun qanday ishlar amalga oshirilmoqda?
2. Hayvonlarni shafqatsiz munosabatlardan himoya qilish uchun qanday qonun chiqarilishini xohlardingiz?
3. Nima uchun ko‘plab insonlar uysiz hayvonlar makonlariga ko‘ngilli bo‘lib yordam berishadi?

Bu qiziq!



Hayvonlar haqida bo‘lgan voqealar

XATIKO

Xatiko laqabli itning tarixi 1925-yilda Yaponiyada boshlangan. Shu yili itning egasi yurak xuruji bilan vafot etadi. Biroq buni Xatiko qayerdan bilsin? It o‘z sohibini uning tirik vaqtida har kuni kutganidek, temiryo‘l bekatida kutishni davom ettiradi. Sadoqat bilan kutish 9 yil, ya’ni itning o‘zi vafot etguniga qadar davom etadi.

E’tiborlisi shundaki, Xatiko hali hayotligidayoq Sibuya temiryo‘l bekatida unga haykal qo‘yilgan edi. Bugungi kunda Xatiko obrazi javobsiz muhabbat va vafodorlik timsoliga aylangan. Xatikoning tarixi haqida 2008-yili AQShda, butun dunyodagi millionlab kishilarning yig‘lashiga sabab bo‘lgan film suratga olingan.



JULBARS

Julbars Ikkinchi jahon urushi davrida “Jangovar xizmatlari uchun” medali bilan taqdirlangan yagona itdir. U 7468 ta mina va 150 tadan ortiq snaryadni aniqlab topgan. Ushbu noyob it nafaqat rekord darajadagi minalar sonini topgan urush qahramoni bo‘lgan, balki Jek Londonning “Oq qoziqtish” romani bo‘yicha ishlangan mashhur filmda rol o‘ynagan.

To‘rt oyoqli qahramonlar: sanitar itlar, aloqachi itlar, razvedkachi itlar, chanalarga qo‘shilgan itlar, qutqaruvchi itlar, yetaklab yuriladigan itlar jasorati sharafiga butun dunyoning turli mamlakatlari va shaharlarida haykallar o‘rnatilgan.



Mustaqil tayyorlash uchun topshiriq



Quyidagi rasmlarga qarab, savollarga javob bering va topshiriqni bajaring.

1. Ular nega bir-biriga yordam ko‘rsatishmoqda?
2. Siz ham jonivorlar insonlarga yordam berayotganiga guvoh bo‘lganmisiz?
3. Hayvonlar insonlarga yana qanday yordam berishi mumkin?
4. Sizga yoqqan rasmni tanlang va unda nima sodir bo‘lganini hikoya shaklida yozing. Hikoyani tanlovingizga ko‘ra, inson yoki hayvon nomidan yozishingiz ham mumkin.













19–20-MAVZU: XULQ-ATVOR QOIDALARI – HAYOT TARZI

Bugun quyidagilarni o‘rganasiz:

1. Nima uchun axloqiy qoidalarga rioya qilish muhim?
2. Teatr va kinoteatrlarda inson o‘zini qanday tutishi kerak?
3. Jamoat transportida qanday axloqiy qoidalarga amal qilish zarur?
4. Dam olishni tashkil etishning qanday xavfli jihatlari bo‘lishi mumkin?
5. Tabiat qo‘ynida va ochiq suv havzalarida dam olish vaqtida inson o‘zini qanday tutishi kerak?



Diqqat bilan o‘qing

Xalqimiz madaniyati avloddan avlodga o‘tib kelayotgan asriy an’analar natijasidir. Shunday an’analardan biri munosib tarzda o‘zini tutish va atrof-muhitga hurmat bilan munosabatda bo‘lishdir.

Inson atrofdagilarning hurmatiga sazovor bo‘lish uchun axloqiy qoidalarni nafaqat bilishi, balki ularga amal qilishi ham zarur.

Bunday ijobiy axloqiy qoidalarni bilgan inson noqulay holatga tushmaydi, beodob yoki tarbiyasiz bo‘lib ko‘rinmaydi.

Axloq – “xulq” so‘zining ko‘pligi bo‘lib, kishilarning bir-birlariga, oilaga, jamiyatga bo‘lgan munosabatlarida namoyon bo‘ladigan xatti-harakatlari, xulq-atvorlari, odoblari majmuyi.

Axloq “irodaning odati” deb ham ta’rif qilingan, ya’ni iroda o‘ziga bir narsani odat qilib olsa, o‘sha axloqqa aylangan bo‘ladi.

Odob-axloq – inson ziynati. Odobli, bilimdon, mehnatsevar, iymon-e’tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir.

Adabning mevasi katta aqldir, bilimning mevasi yaxshi amaldir.

Abu Bakr Muhammad al-Xorazmiy

Axloq – insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir bilimdur.

Abdulla Avloniy

Kichkina bir yaxshilik qilish uchun ham odam buyuk odam bo‘lishi kerak; katta yomonlik qilishga kichik odam ham qodir.

Asqad Muxtor

Savollarga javob bering



1-topshiriq.

1. Siz qanday jamoat joylarini bilasiz?
2. Nima uchun axloqiy qoidalarga amal qilish kerak?
3. Ushbu qoidalarga rioya qilmaslik qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?

Diqqat bilan o‘qing



Teatrlar kattalar va bolalar tashrif buyuradigan jamoat joylari hisoblanadi. Bolalikdan barcha teatrga borishni yoqtiradi. Qiziqarli spektakllar va asarlar tomoshabinlarga san’at olamini ochib beradi.

Tomoshabin quyidagi etiket qoidalariga amal qilishi kerak:

- tomosha boshlanishidan 15 daqiqa oldin chiptada ko‘rsatilgan joyga borib o‘tiriladi;
- ustki kiyimlar o‘rindiqning orqa suyanchig‘iga tashlanmaydi, oldindan garderob*ga topshiriladi;
- tomosha zaliga ichimlik va oziq-ovqat mahsulotlari kiritilmaydi;
- tomosha boshlanishidan oldin telefon o‘chirib qo‘yiladi;
- har doim va hamma joyda tozalikka rioya qilinadi;
- tomosha vaqtida baland ovozda gaplashish mumkin emas.

Shuningdek, aktyorlarga qarsaklar bilan minnatdorchilik bildiriladi, shundan keyingina tomosha zalidan chiqiladi. Garderobdan ustki kiyimlar olinadi va teatrdan yaxshi kayfiyatda chiqiladi.




* Garderob – kiyimlarni saqlash xonasi.

Topshiriqlarni bajaring

2-topshiriq. Teatrga kelgan tomoshabin amal qilishi kerak bo‘lgan axloqiy qoidalarni daftaringizga yozing. Faraz qiling, siz teatrga keldingiz. Tomosha zalining kirish eshigi oldida turibsiz. Qanday harakatlarni bajarasiz? Qaysi qoidalarga amal qilasiz?

3-topshiriq. Rasmlarni kuzating. Ularda qaysi axloqiy qoidalarga amal qilinmayotganligi tasvirlangan?



4-topshiriq. Ushbu fotosuratlarga qarang. Sizningcha, nima uchun inson bunday ishlarni qiladi? Bunday insonga qanday fazilatlar yetishmaydi?





Diqqat bilan o‘qing



Jamoat transporti – yo‘nalish bo‘ylab harakatlanadigan yo‘lovchi transport guruhi bo‘lib, yo‘lovchilarning maktabga, ish joyiga yetib olishlari va boshqa ehtiyojlari uchun xizmat qiladi.

Jamoat transporti qatoriga quyidagilar: metro, avtobus va marshrut-taksilar kiradi.

Fotosuratlarga qarang, yana qanday jamoat transporti turlarini ko‘ryapsiz?



Germaniyadagi 13 kilometrli osma temiryo‘l.



Amfibus. Rotterdamdagi suvda harakatlanuvchi avtobus.



Avtobus-mehmonxona.



Yaponiyadagi riksha.

Jamoat transportida amal qilinadigan axloqiy qoidalar mavjud bo‘lib, ularni rasmlarga qarab sanab o‘tamiz:








Topshiriqlarni bajaring

5-topshiriq. Tartib-intizomli yo‘lovchining portretini yarating. Ularning fazilatlarini sanab bering.

Mustaqil tayyorlash uchun topshiriq

1. Ifodaning mazmunini tushuntiring. Yig‘ishtirilgan joy emas, balki axlat tashlanmagan joy tozadir.
2. “Inson odobi bilan go‘zal” mavzusida insho yozing. Inshongizda ota-onangiz va bobo-buvingizdan eshitgan hikmatlaringizdan ham foydalaning.

Topshiriqlarni bajaring



6-topshiriq. Hikoyani diqqat bilan o‘qing va davom ettiring.

Uzoq kutilgan yoz fasli keldi. Beshinchi sinf o‘quvchilari Karim va Samir birinchi marta yozgi dam olish oromgohiga yo‘l olishdi.

– Bolalar, bu tog‘ qo‘ynidagi dam olish oromgohi, – dedi otasi, – juda ehtiyot bo‘ling, tarbiyachining aytganlarini qilinglar, eng asosiysi, yaxshi dam olinglar!

Otaning so‘nggi, faqat yaxshi dam olish haqidagi so‘zlari bolalarning xotirasida qoldi.

Dam olish oromgohiga kelganlaridan keyin bir necha kun o‘tgach, Karim va Samir guruh bilan baland tog‘ga sayohatga chiqishdi. Guruh tushlikka to‘xtaganda, quyosh tikkaga kelgandi. Tarbiyachi gulxan yoqdi, bolalar kartoshka pishirish uchun tayyorgarlik ko‘rishdi. Bu orada Karim aylanib kelmoqchi bo‘ldi. U kichikroq daryo qirg‘og‘iga bordi. Kun juda issiq edi, Karim suzishga qaror qildi. Biroq u o‘zini kutayotgan xavfni payqamasdi.

Karimning g‘oyib bo‘lganini Samir sezib qolib, uni chaqira boshladi. Keyin butun guruh Karimni qidirishga tushdi, lekin hech kim gulxan haqida o‘ylamasdi...

7-topshiriq. Quyidagi savol va topshiriqlarga javob bering:

1. Matndan bolalarning otasi dam olish oromgohida o‘zlarini qanday tutishlari haqida nasihat qilgan joyni toping. Nima uchun bolalar ota-onalarining nasihatlariga quloq solishmadi?
2. Guruh va ularning tarbiyachisi qanday xatoga yo‘l qo‘yishdi? Bunday xatolar qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?

Diqqat bilan o‘qing



Yoz – bu hamma, ayniqsa, maktab o‘quvchilari uzoq o‘quv yilidan so‘ng imkoni boricha ko‘proq vaqt tabiat qo‘ynida bo‘lishga, toza havodan nafas olishga va kuch to‘plashga intiladigan fasl. Buning uchun kimdir dalahovliga, kimdir tabiat qo‘yniga, tog‘ga, kimdir sog‘lomlashtirish oromgohlariga boradi.

Biroq inson qayerga bormasin, u dam olish vaqtida xavfsizlik va axloqiy qoidalarni bilishi va ularga rioya qilishi kerak. Aks holda yuqorida berilgan hikoyadagi kabi tuzatib bo‘lmaydigan falokat yuz berishi mumkin.

Topshiriqlarni bajaring

8-topshiriq. Rasmlarga nomlar o‘ylab toping.



Diqqat bilan o‘qing


O‘zbekiston Respublikasida suv omborlari juda ko‘p. Ulardan ba’zilari: daryolar, soylar (kichik tog‘ daryosi), ko‘llar tabiiy paydo bo‘lgan; suv omborlari, hovuzlar, favvoralar esa sun’iy, ya’ni inson tomonidan yaratilgan.

Suv havzalaridan ayrimlari cho‘milishga mo‘ljallangan. Boshqalarida esa, aksincha, cho‘milish taqiqlanadi.

Topshiriqlarni bajaring

9-topshiriq. Suv havzalarida o‘zini tutish qoidalarini davom ettiring:

1. Cho‘milish taqiqlangan joylarda cho‘milmaslik.
2. Suv havzalarining tubi tekshirilmagan joylaridan suvga sakramaslik.
3. Juda sovuq suvda cho‘milmaslik.



Mustaqil tayyorlash uchun topshiriq

Insonlar tabiiy obyektlarni qanday ifloslantirayotganliklari va ushbu vaziyatni qanday qilib yaxshi tomonga o‘zgartirish mumkinligi haqida qisqa insho yozing. Inshoga o‘zingiz guvoh bo‘lgan holatlar, vaziyatlardan misollar keltirishingiz ham mumkin.

21–22-MAVZU: SOG‘LIG‘IMIZ – BOYLIGIMIZ

Bugun quyidagilarni o‘rganasiz:

1. Sog‘lom turmush tarziga qanday amal qilinadi?
2. Salbiy odatlar organizmga qanday ta’sir etadi?
3. Jismoniy mashg‘ulotlar biz uchun qanchalik muhim?
4. Sog‘lom bo‘lish uchun qanday qoidalarga rioya qilish zarur?




Diqqat bilan o‘qing

Dunyoda boyliklarning ko‘p turlari mavjud, biroq eng asosiysi sog‘liqdir.

Mustahkam sog‘liq insonning uzoq va faol umr kechirishini ta’minlaydi. U o‘ylagan rejalarimizni amalga oshirishga, qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi.

Agar inson sog‘lom turmush tarziga amal qilsa: to‘g‘ri ovqatlansa, kun tartibi va shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilsa, sport bilan shug‘ullansa u o‘zini yaxshi his qiladi, kam charchaydi hamda ko‘proq ishlarga ulguradi. Sog‘lom turmush tarziga rioya qilish – bu juda foydali odat!





Guruhda ishlash

1-topshiriq. Quyidagi harflari aralashtirib berilgan so‘zlarni partadoshingiz bilan toping.

BEBAKTSOL, LSAOLMAITK, GYUIRUSh, KOSB, UKARSh, BUFLOT, SINNET, PRSOT, YHAOT, SVU

Diqqat bilan o‘qing

Ba’zi insonlarda yomon odatlar ham bo‘ladi. Masalan: chekish, spirtli ichimliklarni iste’mol qilish, kompyuter oldida uzoq vaqt o‘tirish va boshqalar.

Bunday odatlardan insonning sog‘lig‘i va ahvoli yomonlashadi.

Mazkur odatlar inson hayoti uchun xavfli, tanlov esa uning o‘ziga bog‘liq: kimdir sog‘lom turmush tarziga amal qiladi, kimdir o‘z sog‘lig‘iga o‘zi zarar yetkazadi.



Topshiriqlarni bajaring

2-topshiriq. Rasmga qarang. Unda qaysi yomon odat tasvirlanganini partadoshingiz bilan muhokama qiling va daftaringizga yozing.

Bu odat inson sog‘lig‘iga qanday ta’sir qilishi mumkinligini izohlab bering.




Diqqat bilan o‘qing

Hozirgi vaqtda sog‘lom turmush tarziga amal qilish juda muhim. Insonlar sog‘lom va baquvvat bo‘lishning garovi bo‘lgan faol sport va to‘g‘ri ovqatlanishni tanlamoqdalar.

Sog‘lom turmush tarzining asosiy qoidalari quyidagilardan iborat:

- kun tartibi;
- toza havo;
- faol harakat;
- foydali oziq-ovqat mahsulotlari;
- ruhiy va emotsional holat uyg‘unligi.





Topshiriqlarni bajaring

3-topshiriq. Quyidagi so‘zlar yordamida jumlalarning mazmunini to‘ldiring: *boylik, sport bilan shug‘ullanish, sog‘lom bo‘lish.*

1. Sog‘lom bo‘lish uchun ... zarur.
2. Sport bilan do‘stlashish – ... .
3. Sog‘liq qimmatli ... .

4-topshiriq. “Sog‘lom turmush tarzi” mavzusida sinkveyn tuzing.


1-satr – mavzu nomi.
2-satr – birinchi satrdagi so‘zga 2 ta sifat yozing.
3-satr – birinchi satrdagi so‘zga 3 ta fe’l yozing.
4-satr – birinchi satr mazmuniga mos to‘rtta so‘zdan iborat jumla yozing.
5-satr – birinchi satrdagi so‘zning sinonimini yozing.



Diqqat bilan o‘qing

Jismonan va ruhan sog‘lom odam yuqori darajada g‘ayrat va kuch-quvvatga ega bo‘ladi. Kuch manbalaridan biri – bu jismoniy mashqlar. Sport bizga kun bo‘yi kuch-quvvat va yaxshi kayfiyat bag‘ishlaydi, o‘qish hamda kundalik mashg‘ulotlar bilan faol shug‘ullanishimizga yordam beradi.

Abu Ali ibn Sinoni Yevropada “Avitsenna” deb ataydilar. Allomaning dono maslahatlariga bugungi kunda ham amal qilinadi. Ibn Sinoning hayotidagi asosiy mashg‘uloti tibbiyot bo‘lgan. 16 yoshidayoq uni Buxoro amirini davolash uchun taklif qilganlar. Shundan keyin Ibn Sino ko‘plab Sharq hukmdorlarining saroy tabibi bo‘lgan. Zamondoshlari uni “Shayx ur-Rais” deb atashgani bejiz emas.



Abu Ali ibn Sino quyidagi maslahatlari bilan insonlarni sog‘lom hayot tarziga undagan:


“Sog‘lom yashamoqchi bo‘lgan odamlar uyquga jiddiy e’tibor berishlari kerak. Ularning uyqusi me’yorida bo‘lishi va ortiqcha bo‘lmasligi lozim; uyqusizlik miya va uning butun kuchiga zarar berishidan ehtiyot bo‘lish kerak”.

“Eng yomoni, turli xil ovqatlarni aralash iste’mol qilish va uzoq vaqt ovqatlanishdir”.



Mustaqil tayyorlash uchun topshiriq

Mazkur jadvaldan foydalanib, taomnomangizda qanday mahsulotlarni iste’mol qilishingizni yozing. Bu qanday vitaminlar qabul qilayotganingiz, qaysilarini qabul qilmayotganingizni bilish imkoniyatini beradi. Partadoshingiz bilan muhokama qiling.





Diqqat bilan o‘qing

Endi siz yosh bola emassiz, biroq katta ham emassiz. Sizning yoshingizdagi davr o‘smirlik davri, deb ataladi. Siz – o‘smirsiz.

Bu yoshda quyidagi muhim o‘zgarishlar ro‘y beradi:

- yangi qiziqish va ishqibozliklar paydo bo‘ladi;
- do‘stlar va tengdoshlaringizga ko‘proq vaqtingizni bag‘ishlaysiz;
- ba’zan to‘satdan kayfiyatingiz o‘zgaradi (yaxshidan yomonga yoki aksincha);
- atrofingizdagilar sizning fikringizga qo‘shilishmasa yoki uni hisobga olishmasa, salbiy tuyg‘ular paydo bo‘ladi;
- ulg‘ayish bosqichi boshlanadi.

Siz endi sport seksiyalariga, ilmiy to‘garaklarga borib, do‘stlar orttirasiz, ular bilan hamkorlikda maqsadlaringizga erishasiz, jismonan, aqlan va ma’nan rivojlanasiz.

Butunlay qarama-qarshi xususiyatli insonlar mavjud bo‘lib, ularning asosiy maqsadi vaqtni o‘yin-kulgi bilan o‘tkazish, hech narsa bilan shug‘ullanmaslik va ortiqcha bezovta bo‘lmaslikdir. Bunday insonlar orasida muammolarga, noxush holatlarga duch kelishingiz va sog‘lig‘ingizga zarar yetkazishingiz mumkin.

Salbiy ta’sirlarga qarshi tura olish va noxush oqibatlarga yo‘l qo‘ymaslik uchun hayotda nimaga erishmoqchi ekanligingizni anglashingiz va do‘stlar tanloviga ehtiyotkorlik bilan yondashishingiz zarur.

Har birimizning ulg‘ayishimiz turlicha bo‘ladi. Ushbu jarayon mas’ullik, xabardorlik, qat’iyatlilik, mustaqillik kabi fazilatlarning rivojlanishiga muvofiq tavsiflanadi.

Keling, ushbu fazilatlarning har biri o‘zini qanday namoyon qilishi mumkinligini ko‘rib chiqaylik:

- mas’uliyatlilik – bu o‘z so‘zlari va harakatlari uchun mas’ullik va tayyorlik qobiliyati. Masalan, berilgan va’dalarni bajarish;





- xabardorlik – bu bo‘layotgan voqelikni aqlan va jismonan his qilish qobiliyati. Masalan, muammoning muhimligini tushungan holda, uni murakkablashtirmaslik;
- maqsadga intiluvchanlik – bu biror bir natijaga erishish uchun bor kuch-g‘ayrati bilan harakat qilish. Masalan, sog‘lom va faol bo‘lish istagini kundalik reja asosida amalga oshirish;
- mustaqillik – o‘z maqsadlarini belgilash va ularga o‘z harakati orqali erishish, muammolarni o‘z kuchi bilan hal qilish qobiliyati. Masalan, kimningdir iltimosini kutmasdan, dasturxonni tuzash yoki mustaqil holda kiyimlarni yuvish.

Topshiriqlarni bajaring



5-topshiriq. Ushbu harakatlarning har birini namunada ko‘rsatilganidek sifatlarga ajrating.

Mas’uliyatlilik →	har kuni dush qabul qilish; o‘z shaxsiy kiyimlarini yuvish; uy vazifasini bajarish; tamaki chekishni sinab ko‘rmaslik; sport bilan shug‘ullanish
Xabardorlik	maqtov yorliqlari olish; o‘z xatosini tan olish; o‘z kun tartibini rejalashtirish; kundalikni o‘z vaqtida to‘ldirish; to‘g‘ri ovqatlanish
Maqsadga intiluvchanlik	hodisalarning muhimligini tushunish; yaxshi baho olishga intilish; bo‘sh o‘quvchilarga yordam ko‘rsatish; o‘zingizga yegulik (buterbrod) tayyorlash
Mustaqillik	yomon davralardan qochish; xaridni do‘konlarga borib qilish; avval asosiy vazifalarni bajarish, so‘ngra o‘ynash yoki televizorda qiziqarli ko‘rsatuvni tomosha qilish



Savollarga javob bering

1. Bugungi darsdan nimalarni bilib oldingiz?
2. Sizning fikringizcha, nima sababdan salomatlik boylikdan qimmatliroq?
3. Sog‘lom bo‘lish uchun nima qilish zarur?
4. Sizda qanday foydali odatlar mavjud?
5. Olgan bilimlaringizni qanday qo‘llaysiz?



Mustaqil tayyorlash uchun topshiriq

1. Abu Ali ibn Sinoning quyidagi hikmatiga o‘z fikringizni bildiring: “Harakat ko‘plab dorilarning o‘rnini bosishi mumkin, biroq birorta ham dori harakatning o‘rnini bosa olmaydi”.
2. Sog‘lom turmush tarziga o‘z emblemangizni o‘ylab toping.



23–24-MAVZU: XOTIRA – ABADIY, QADR – MUQADDAS

Bugun quyidagilarni o‘rganasiz:

1. Xotira nima?
2. Nega qadriyatlar muqaddas sanaladi?
3. Nega Xotira va qadrlash kuni yurtimiz bo‘ylab nishonlanadi?
4. Nega ba’zi shaxslar xotirada abadiy saqlanib qoladi?



Diqqat bilan o‘qing

“Bu uzuk menga buvimdan qolgan. U qimmatbaho emas, biroq men uchun qadrli bo‘lgan inson haqidagi xotiralarni saqlaydi”.

“Mening buvam Ikkinchi jahon urushida ishtirok etgan. U o‘z guruhi bilan Berlingacha yetib borgan. Ularni xotirlab, suratlarini mehmonxonamizga osib qo‘yganmiz. Mazkur portret buvamning xizmatlariga hurmat sifatida avloddan avlodga o‘tib keladi”.

“Shahrimizda mashhur insonlar yashagan xonadonlar ko‘p, biroq ulardan biri alohida ajralib turadi. Mazkur uyda mashhur shoir Gulxaniy yashagan. Shahrimiz aholisi uning ijodiga hurmat bilan qarashadi. Ular o‘z davrida shoir foydalangan turli buyumlarni quvonch bilan muzey kolleksiyasi sifatida ushbu uy-muzeyga taqdim etganlar”.

5-sinf o‘quvchilari insholaridan



Savollarga javob bering

1-topshiriq.

1. Insho mualliflari qanday buyumlarni qadrlashar ekan? Nima uchun?
2. Xotirani siz qanday tushunasiz?
3. Xotirangizda qolgan eng muhim narsalar va voqealar nomini sanab o‘ting.







Diqqat bilan o‘qing

Asrlar davomida turfa voqealar sodir bo‘ladi, turli xil insonlar yashab o‘tadi. Ular haqidagi ma’lumotlar esa xotiramizda qoladi. Ko‘chalar, maydonlar, shahar-u qishloqlar ularning nomi bilan ataladi.

Xalq xotirasi – bu avloddan avlodga o‘tuvchi qadriyatlardir.

Qadriyat va an’analarda xalqning ma’naviy merosi saqlanadi. Vaqt o‘tgani sayin ularning mazmun-mohiyati xotiramizga ko‘chadi, lekin ahamiyatini yo‘qotmaydi.




Savollarga javob bering

2-topshiriq.

1. Nega o‘tmishdagi voqealar xalq xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi?
2. Meros so‘zini qanday tushunasiz?
3. Xalq uchun qadrli bo‘lishi mumkin bo‘lgan voqealar yoki osori atiqalarga misollar keltiring.

Juftlikda ishlash. Partadoshingiz bilan “Madaniy meros” sxemasini o‘rganing. Mazkur tushunchani ta’riflashga harakat qiling.



3-topshiriq.

1. Sizning fikringizcha, madaniy meros mamlakat va xalqlar kelajagiga ta’sir ko‘rsatadimi?
2. Quyidagi so‘zlarni moddiy va ma’naviy meroslarga ajratib, daftaringizga yozing.
   Navro‘z, sumalak, shashmaqom, oltin toj, olmos uzuk, qo‘lyozma kitob, choynak, to‘y marosimlari, teatr binosi.
   Ro‘yxatni o‘z misollaringiz bilan to‘ldiring.

Bu qiziq!



1994-yilda Britaniyada mamlakatning madaniy merosini qo‘llab-quvvatlaydigan tashkilotga asos solingan. Olimlarning 80–90 foiz fuqarolar ishtirokida o‘tkazgan tadqiqot natijalari mahalliy madaniy meroslar inson hayotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, dunyoga tanilishda muhim rol o‘ynashini ta’kidlagan.

Diqqat bilan o‘qing



Rivoyat

Bir bola daraxt ekayotgan boboni ko‘rib qolib, u kishidan so‘rabdi:

– Bobo, bu daraxt o‘sib, meva berishi uchun necha yil kerak bo‘ladi?

Bobo javob beribdi:

– Bu daraxt faqat o‘n besh yildan keyingina meva beradi.

Bola yana so‘rabdi:

– Siz u vaqtgacha yashashingiz uchun o‘zingizni sog‘lom va kuchli his qilyapsizmi?

Bobo javob beribdi:

– Hayotim davomida men bobom tomonidan ekilgan daraxtlarning ko‘plab mevalaridan bahramand bo‘lganman. Endi men ham nevaralarimga atab daraxt ekyapman.

Savollarga javob bering



4-topshiriq.

1. Mazkur rivoyatdagi merosni nimaga qiyoslash mumkin?
2. Rivoyatda siz uchun qanday muhim qadriyat haqida so‘z yuritilgan?
3. Daraxt ekayotgan boboning portretini yarating. Bola bilan bobo uchrashuvi esingizda qoldimi? Nima uchun?





Diqqat bilan o‘qing

Insonga har kuni tinchlik-osoyishtalik va xotirjamlik kerak. Tinchligini yo‘qotgan xonadon ham, mamlakat ham aslo xotirjam bo‘la olmaydi. Tinchlik-xotirjamlik taraqqiyot garovidir. 9-mayni Xotira va qadrlash kuni tarzida umumxalq bayrami sifatida nishonlab kelayotganimiz zamirida ham aynan ana shu ezgu maqsad yotibdi. Xotira va qadrlash kunini nishonlashdan ko‘zlangan bosh maqsad – Vatan himoyachilarini xotirlash, oramizdagi fidoyi insonlarning, tinchlikning qadriga yetish, tinch-osoyishta yashayotganimizga shukrona qilishdan iborat. Bu har qanday kishini yashashga, yaratishga, el-u yurtga sadoqat va qat’iyat bilan xizmat qilishga undaydi. Zero, xotira hamisha muqaddas, qadr azizdir.












Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va voqea-hodisalariga bag‘ishlab dunyoning ko‘plab shaharlarida haykallar o‘rnatilmoqda, xotira bog‘lari, muzeylar ochilmoqda. O‘zbekistonda ham mangu olov va shon-shuhrat xiyobonlari qurilgan. Shuningdek, 2020-yilda Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashabbusiga ko‘ra g‘alabaning 75 yilligi munosabati bilan G‘alaba bog‘i barpo etildi.



Mustaqil tayyorlash uchun topshiriq



“Xotira va qadrlash kuni” mavzusida kichik matn yozing. Matnni yozayotganingizda bobongiz va buvingizdan yoki ota-onangizdan bu kun haqida eshitganlaringizni eslang.



Topshiriqlarni bajaring

1. Quyidagi hikmatning mazmunini tushuntiring:
   “O‘tmishga qanchalik ko‘p nazar tashlasak, kelajakni shunchalik qadrlaymiz”.
2. O‘zingiz uchun qadrli bo‘lgan ashyolar haqida so‘zlab bering. Nima uchun uni qadrlaysiz?
3. Xotira va qadrlash kunida siz qanday xayrli ishlarni qilganingiz haqida kichik matn yozing.



Diqqat bilan o‘qing

YANGI DAVR YETAKCHISI



O‘rta Osiyo jadidchilik harakatining yo‘lboshchisi, XX asr o‘zbek milliy matbuoti va yangi usuldagi milliy maktab asoschisi, milliy teatr tashkilotchilaridan biri, adib, shoir, murabbiy, muharrir, ma’rifatparvar jamoat arbobi Munavvarqori Abdurashidxon o‘g‘li 1878-yilda Toshkent shahrida tug‘ilgan. Otasidan yosh yetim qolgani tufayli dastlabki ta’lim-tarbiyani onasidan olgan.

Munavvarqori XIX asrning oxiridan boshlab jadidchilik harakatlarida faol ishtirok eta boshladi, keyinchalik Toshkentda jadid (yangi usul) maktablarini ochadi.

U maktablar uchun grammatika va alifbo asoslari ifodalangan “Birinchi ustoz” nomli yangi usuldagi ilk darslikni tayyorlaydi. “Ikkinchi ustoz” deb nomlangan ikkinchi kitobida o‘qish va yozishga qaratilgan uslubni, shuningdek, oiladagi o‘zaro munosabatlarni yoritgan. Munavvarqori, shu bilan birga, ilk matematika darsligini tayyorlagan. Bolakaylar uchun esa she’r va hikoyalar yozgan. Elbek, Oybek, Mannon Uyg‘ur kabi madaniyat arboblari, adabiyotshunoslar, olimlar Munavvarqorining o‘quvchilari bo‘lishgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-sentabrdagi Farmoniga asosan, Munavvarqori Abdurashidxonov Vatanimiz tarixi-

ning g‘oyat murakkab davrida – XX asr boshlarida o‘zining ma’rifatparvarlik faoliyati va fidokorona xizmatlari bilan milliy ta’lim-tarbiya tizimini yaratish hamda yurtimiz istiqloli, xalqimizning ozod hayotini ta’minlashga qo‘shgan beqiyos hissasini inobatga olib, “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan mukofotlangan.

5-topshiriq. Quyidagi hikmatlarni o‘qing, ularni qanday tushunganingizni so‘zlab bering.

Xotira bor ekan – tirikdir millat.

Xotira – ajdodlarga yuksak hurmat va ehtirom ifodasi.

Xalq maqoli



Savollarga javob bering



1. Munavvarqori Abdurashidxonov Prezidentimiz tomonidan qanday orden bilan mukofotlangan?
2. Rasmda tasvirlangan maydon haqida nimalarni bilasiz?
3. Sizga ta’lim berayotgan ustozlaringiz orasida ham shunday fidoyi o‘qituvchilar bormi? Ularning qanday xislatlarini qadrlaysiz?

Mustaqil tayyorlash uchun topshiriq



“Shahidlar xotirasi” mavzusida kichik matn yozing.

25–26-MAVZU: MEROSIMIZ – FAXRIMIZ

Bugun quyidagilarni o‘rganasiz:

1. Moddiy-madaniy meros nima?
2. O‘zbekiston va jahondagi madaniy meroslarning saqlab qolinishida qanday xalqaro tashkilotlar ishtirok etadi?



Diqqat bilan o‘qing

Sayyoramiz juda uzoq va boy tarixga ega. Zamonaviy fanlar orqali qadim zamonlarda odamlar qanday yashaganliklari haqida bilib olamiz. Bizga eng ishonchli ma’lumotlarni qadimiy obidalar, yodgorliklar, haykallar, san’at va tasviriy san’at osori atiqalari, ya’ni moddiy-madaniy meroslar beradi.

Qadimiy yodgorliklar tufayli o‘tmish ajdodlar turmushi va madaniyatini o‘rganamiz, tarixiy voqelikni tiklab, filmlar yarata olamiz.









Palmira yodgorliklari (Suriya).

Savollarga javob bering



1-topshiriq.

1. Moddiy-madaniy merosga nimalar kiradi? Misollar keltiring.
2. Moddiy merosning vayron bo‘lishiga nimalar sabab bo‘ladi?
3. Nima uchun vayron bo‘lgan yodgorliklarni ta’mirlash shunchalik muhim hisoblanadi?
4. Madaniy yodgorliklarni asl holicha saqlab qolish mumkinmi?

Diqqat bilan o‘qing



Registon ansambli – Samarqandning Registon maydonida joylashgan uch madrasa (Ulug‘bek madrasasi, Tillakori madrasasi, Sherdor madrasasi)dan iborat me’moriy majmua. Registon ansambli o‘zining rang-barang koshinkor bezaklari, naqshinkor peshtoqlari, ulkan gumbazlari bilan O‘rta Osiyo me’morchiligining noyob yodgorligi hisoblanadi. Registon ansambli 2001-yilda UNESCOning butun dunyo yodgorliklari ro‘yxatiga kiritilgan. “Registon” so‘zi “qumloq joy” degan ma’noni anglatadi. O‘rta asrlarda hamma katta shaharlarning markazlari “Registon” deb atalgan. Shu nomdagi maydonlar Buxoro, Shahrisabz va Toshkentda ham bo‘lgan. Samarqanddagi maydon esa O‘rta Osiyodagi eng mahobatli maydonlardan biri bo‘lib, unda bir necha ming yillik tarix mujassam. Amir Temur davrida Registon Samarqandning markaziga aylantirildi. Har yili yurtimizga Registonni ko‘rish ishtiyoqida butun dunyodan sayyohlar tashrif buyurishadi.

Topshiriqlarni bajaring



1. Registon maydoni haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Registon maydoni qanday voqealar xotirasini o‘zida saqlaydi?
3. Nima uchun mazkur yodgorlik turli mamlakatlarning ko‘plab sayyohlarini o‘ziga jalb qiladi?
4. Registon maydoni davlatimiz uchun qanday ahamiyatga ega?



Diqqat bilan o‘qing

Bugungi kunda mamlakatimizning ko‘pgina yodgorliklari qayta ta’mirlandi. Davlat Samarqand, Buxoro, Xiva yodgorliklarini ta’mirlash va obod qilish uchun katta kuch va mablag‘ni sarflamoqda, shuningdek, mamlakatning muhim madaniy qadriyatlarini saqlash va vayron bo‘lishining oldini olish bo‘yicha qator ishlarni amalga oshirib kelmoqda.

Topshiriqlarni bajaring

2-topshiriq. Moddiy merosning vayron bo‘lish sabablari ro‘yxatini davom ettiring.

Vayron bo‘lish sabablari	Yechimlarini izlash
Jangovar harakatlar	Tinchlik o‘rnatish
...	...

Mustaqil tayyorlash uchun topshiriq



Kutubxona materiallaridan, gazeta yoki jurnallardagi maqolalardan yoki internetdan foydalanib, mamlakatimizning yodgorliklari haqida bilib oling. Tarixiy obidalarga zarar yetish sabablari va yodgorliklarni qayta tiklash usullari to‘g‘risida ma’lumot to‘plang.

Diqqat bilan o‘qing



Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o‘rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

Shavkat Mirziyoyev


Savollarga javob bering



3-topshiriq.

1. “Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi” degan fikrni qanday tushundingiz?
2. Tarixiy yodgorliklarni asrab-avaylash nima uchun muhim deb o‘ylaysiz?
3. Qanday tarixiy majmualar haqida bilasiz? Ular haqida so‘zlab bering.
4. O‘zingiz yashab turgan hududda qanday tarixiy obidalar bor?









Diqqat bilan o‘qing

Mamlakatimizda juda ko‘p noyob tarixiy obidalar va nodir me’morchilik yodgorliklarining ajoyib namunalari mavjud. O‘zbekistonni Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabzda saqlanib qolgan saroylar, maqbaralar hamda masjidlar, minoralar va boshqa tarixiy obidalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu biz qadrlaydigan, sevadigan va asrashimiz shart bo‘lgan madaniy merosimizdir.

Fuqarolar O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini avaylab asrashga majburdirlar. Madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasidadir.


O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 49-modda.

O‘zbekiston mustaqil mamlakat sifatida UNESCOga 1993-yil 26-oktabrda a’zo bo‘ldi.

1972-yilda UNESCO “Jahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish to‘g‘risida” Konvensiya qabul qilgan hamda butun jahon merosi ro‘yxatini shakllantirishni boshlagan.

2019-yil holatiga ko‘ra, jahon merosi ro‘yxatiga 1121 ta obyekt kiritilgan bo‘lib, ularning 869 tasi madaniy, 213 tasi tabiiy, 39 tasi esa jahon mamlakatlarining aralash merosi hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda bu ro‘yxatga Vatanimizning to‘rtta moddiy va bitta tabiiy obyekti – Xiva, Buxoro, Samarqand va Shahrisabzning tarixiy markazlari, shuningdek, Chatqol qo‘riqxonasi kiradi.





Ichan qal’a (Xiva).



Ark (Buxoro).



Oqsaroy ansambli (Shahrisabz).



Registon ansambli (Samarqand).



Savollarga javob bering

4-topshiriq.

1. Nima deb o‘ylaysiz, UNESCO tashkiloti Butun jahon madaniy merosi ro‘yxatiga Xiva, Buxoro, Samarqand va Shahrisabzning markazlarini va Chatqol qo‘riqxonasini nega kiritgan?
2. Kattalar yordamida Chatqol qo‘riqxonasi haqida ma’lumotlar to‘plang. Chatqol qo‘riqxonasida qanday o‘simliklar o‘sishini va hayvonlar borligini aniqlang.
3. Sizningcha, nima uchun Butun jahon madaniy merosi ro‘yxati shakllana boshlangan?







Topshiriqlarni bajaring

5-topshiriq. Sizningcha, moddiy-madaniy merosni saqlash uchun nima qilish kerak?

1. Ko‘rgazma va muzeyga tashrif buyurish.
2. Qimmatbaho ashyolarga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish.
3. Madaniy meros muammolariga odamlar e’tiborini jalb etish.



Mustaqil tayyorlash uchun topshiriq

1. UNESCO tashkiloti va uning O‘zbekistondagi faoliyati haqida ma’lumot to‘plang.
2. Qanday tarixiy joylarga borgansiz? Ular haqida qisqacha ma’lumot yozing.
3. Agar bir necha asr ortga qaytishning imkoni tug‘ilsa, qaysi obidani yoki joyni borib ko‘rgan bo‘lardingiz?
4. Asrlar davomida avloddan avlodga o‘tib kelayotgan oilaviy yodgorligingiz bormi? Agar bor bo‘lsa, unga tegishli ma’lumotlar to‘plang va oilangizdagilar uni qanday maqsadda saqlab qo‘yishgani haqida daftaringizga yozing.

27–28-MAVZU: MILLIY AN’ANA VA QADRIYATLARIMIZ

Bugun quyidagilarni o‘rganasiz:

1. Hurmat nima va u ota-onaga, yaqinlarga nisbatan qanday namoyon bo‘ladi?
2. Oilada o‘zaro hurmatni shakllantirishda madaniy an’analarning o‘rni qanday?
3. Mustahkam oilaviy munosabatlarni saqlash nima uchun muhim?

Diqqat bilan o‘qing



IBRAT

Nilufar tushga yaqin maktabdan qaytgach onasi Farida opa tayyorlagan tushlikni chala-chulpa tanovul qilib, likopchada turgan yum-shoqqina ikkita shaftolining birini ishtaha bilan yedi, so‘ng darvoza sari yurdi.

– Shu issiqda qayoqqa yo‘l olding? – Qizining ortidan chaqirdi Farida opa.

– Shohidanikiga...

– Darsingni tayyorlasang bo‘lmaydimi?

– Charchadim. Biroz o‘ynab kelay...

Shohidalarning uyi Nilufarlarnikidan uch uy narida edi.

– Shohi... – dedi Nilufar qiya ochiq darvozadan ichkariga mo‘ralab.

– Kiraver... – idish-tovoq yuvayotgan Shohida dugonasini ichkariga chorladi.

– Namuncha, shuncha idish-tovoq?

– Uyimizga mehmonlar kelgandi. Oyimga yordamlashayapman, – dedi Shohida chinni likopchalarni birma-bir chayib taxlar ekan.

– Hozir, ishlarimni qilib olay. Sen ungacha dam olib tur, xo‘pmi?

Nilufar stulga o‘tirdi. Ammo negadir o‘ng‘aysizlandi, o‘rnidan turib piyolalarni chayishga ko‘maklasha boshladi.

Shohidaning chinnilarni chaqqonlik bilan chayib olayotgani Nilufarning havasini keltirdi. Shohida uyimizga borib qolsa rosa sharmanda bo‘larkanman-da, deb o‘yladi.

...Shu kuni kechki ovqatdan so‘ng, Farida opa istamaygina kosa-piyolalarni yuvish uchun turdi.

Nilufar esa chaqqonlik bilan so‘ridan tushdi-da, onasining qo‘lidan idishlarni oldi.

– Endi men katta qiz bo‘ldim, oyijon, – dedi Nilufar ishonch bilan. – Bularni o‘zim yuvaman.

Ulug‘bek Mustafo



Savollarga javob bering

1. Nilufar maktabdan kelganida o‘zini to‘g‘ri tutdimi? Nima uchun?
2. Nilufar va uning dugonasi Shohidani solishtiring.
3. Nilufarning yaxshi tomonga o‘zgarishiga nima yordam berdi?
4. Nilufar o‘zidan uyaldimi?
5. Siz ota-onangizga qanday yordam berasiz?



Guruhda ishlash

1-topshiriq. Juft bo‘lib, quyidagi topshiriqlarni bajaring:

1. Hikoyaning yakuni haqida sizning fikringiz qanday?
2. Quyidagi jumlani uchta misol bilan to‘ldiring: “Men o‘z oilam va yaqinlarimni hurmat qilaman, sababi ...”
3. Hikoyada qanday g‘oya ilgari surilgan?
4. Oilaviy qadriyatlar ro‘yxatini davom ettiring:

- kattalarga hurmat;
- kichiklarga izzat;
- ..... .



Diqqat bilan o‘qing

Sharq madaniyati oila va oilaviy munosabatlar bilan chambarchas bog‘liq. Sharq xalqlari madaniyatining muhim qismi bu kattalarga hurmat va ota-onalarga g‘amxo‘rlikdir. An’ana – bu madaniy meros shaklida avloddan avlodga, kattalardan kichiklarga o‘tuvchi urf-odatlar, qarashlar, xatti-harakatlar, tajriba, shuningdek, oiladagi o‘zaro munosabatlar.



Topshiriqlarni bajaring

2-topshiriq. Rasmlarga qarab, bu bolalarning xatti-harakatlari mazmunini nima umumlashtirayotganini ayting.



Topshiriqlarni bajaring

3-topshiriq. “Mening hovlimda hashar” mavzusida quyidagi savollarga asoslanib, klaster tuzing:

1. Hovli tozalash ishlarini kimlar bajaradilar?
2. Hovlini tozalashning qanday turlarini bilasiz?
3. Hashar payti va undan keyin qanday tuyg‘ularni his qilgansiz?
4. Uyda hashar o‘tkazish oilangiz va yaqinlaringiz bilan sizning o‘zaro munosabatingizning mustahkamlanishiga qanday yordam beradi?

Diqqat bilan o‘qing

Urf-odatlarimizdan biri bo‘lgan hashar asrlar davomida mamlakatimiz madaniyatining tarkibiy qismiga aylangan.

Hashar bu shunchaki ommaviy tozalash ishi bo‘lmay, balki bu oilada avloddan avlodga yetkaziladigan xalq an’analarini hurmat qilish hamdir.

Har yili Navro‘z bayrami arafasida yurtimiz bo‘ylab keng qamrovli hashar bo‘lib o‘tadi. 21-mart kuni butun dunyo bo‘ylab ushbu bayram nishonlanadi, chunki 2010-yilda bu kun BMT tomonidan Xalqaro Navro‘z kuni sifatida tasdiqlangan va 2016-yilda esa ushbu bayram UNESCOning nomoddiy meroslari ro‘yxatiga kiritilgan.

Navro‘z bayramini mazali taomlar va milliy o‘yinlar bilan nishonlash odat tusiga kirgan. Navro‘z kunlarida tabiat jonlanadi, daraxtlar gullaydi, odamlar qishki kiyimlardan voz kechishadi, yerdan ko‘katlar o‘sib chiqadi va bu dori-darmonlarga boy o‘t-maysalardan taomlar tayyorlana boshlanadi.

Navro‘z – necha asrlardan buyon nishonlanib kelinayotgan an’ana. Shuning uchun bu kunda Navro‘zning an’anaviy kuy-qo‘shiqlari yangraydi, odamlar raqsga tushib, quvnaydilar, bahor nafasidan zavqqa to‘lib, bir-birlariga sovg‘alar ulashadilar, nochorlarga yordam beradilar.



Diqqat bilan o‘qing

Navro‘zni nishonlash urf-odatlaridan biri sumalak taomini tayyorlashdir. Ushbu taom katta qozonda, o‘choqqa o‘tin yoqib pishiriladi. Uning tarkibi un, yog‘ va undirilgan bug‘doydan iborat.



Topshiriqlarni bajaring


4-topshiriq. “Navro‘z bayramida” mavzusida mahallangizda bo‘lib o‘tgan bayram sayli haqida matn yozing.



Savollarga javob bering

5-topshiriq.

1. Sizning mahallangizda, oilangizda Navro‘z bayrami qanday nishonlanadi?
2. Ushbu kunda qanday taomlar tayyorlanadi?
3. Nima sababdan Sharqda Navro‘z bayramini “Sharq xalqlarining yangi yili”, deb ataydilar?



Mustaqil tayyorlash uchun topshiriq



Oiladagi o‘zaro hurmatni mustahkamlashda Navro‘z bayramining roli qanday?

Savollarga javob bering



6-topshiriq.

1. O‘zbekiston Respublikasi qanday tarkibiy qismlarga bo‘linadi?
2. Sizningcha, mamlakatimiz mintaqalarida an’analar va urf-odatlar bir xilmi?

Diqqat bilan o‘qing



Osh (palov) qadimdan O‘rta Osiyoning har qanday to‘y, sayil, bayram va mehmondorchiliklarida tayyorlanadi. Uning asosiy masalligi (tarkibiy qismi) guruchdir. O‘zbekistonda pishirish usulining xilma-xilligiga va ishlatadigan masallig‘ining turiga qarab bu taomning qirqdan ortiq turi bor (qovurma osh, bedana osh, ivitma osh, qazili osh kabi), oltmishdan ziyod tayyorlash usullari mavjud.

O‘zbekistonning barcha mintaqasida osh (palov) o‘ziga xos tarzda tayyorlanadi va har bir tayyor oshning mazasi bir-birini takrorlamaydi.





Bu qiziq!

2017-yilda osh (palov) UNESCOning nomoddiy madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan.



Guruhda ishlash

7-topshiriq. Partadoshingiz bilan birgalikda do‘ppini qo‘lingizga oling va uning naqshinkor bezaklari nimani anglatishi mumkinligi haqida o‘ylang.



Diqqat bilan o‘qing

Do‘ppi ham palov singari milliy merosimiz hisoblanadi. Do‘ppining shakli va rangi orqali egasi va uning yoshini, jamiyatda qanday mavqega ega ekanligini aniqlash mumkin.

Buxoro, Samarqand, Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm, Farg‘ona vodiysi va Toshkent do‘ppilari bor bo‘lib, ular nafaqat shakli, balki naqshinkor bezaklari bilan ham farqlanadi. Bu bezaklar bosh kiyimni bezatibgina qolmay, o‘ziga xos ma’no-mazmunga ham egadir.



Savollarga javob bering



8-topshiriq.

1. Do‘ppi orqali uning egasi haqida qanday ma’lumotlarni bilish mumkin?
2. Sizningcha, do‘ppilarning naqshinkor bezagida qanday ma’no bor?



Mustaqil tayyorlash uchun topshiriq



Quyida taklif etilgan topshiriqlardan birini tayyorlang:

1. Oilangiz qadriyatlari to‘g‘risida ota-onangiz bilan suhbat o‘tkazing. Oilaviy qadriyatlar va an’analar ro‘yxatini tuzing.
2. Mahallangizda, shahringizda qanday milliy an’analar mavjudligi haqida so‘rov o‘tkazing va ularning ro‘yxatini tuzing.

29-MAVZU: KITOBLARDA OLAM SIRLARI

Bugun quyidagilarni o‘rganasiz:

1. Dastlabki kitoblar qanday paydo bo‘lgan?
2. Nima uchun kitob o‘qish muhim hisoblanadi?
3. Kitoblarni qanday va nima sababdan asrash lozim?



Diqqat bilan o‘qing

Qadim zamonlarda inson xotirasi tajriba, voqealar va insonlar haqidagi axborotni saqlash va yetkazib berishning yagona vositasi bo‘lgan. Tarixda yozuvga ega bo‘lmagan tamaddunlar ham ma’lum, bunday tamaddunlarda zarur bo‘lgan ma’lumotlarning ulkan hajmi yod olingan.

Insoniyat alifbo ixtiro etib, so‘zlarni yozishni o‘rganganida birinchi qo‘lyozma kitoblar papirusga (o‘simliklardan tayyorlangan qog‘oz), pergament (qo‘zichoqlar terisi)ga yozilgan.

Qog‘oz ilk bor Xitoyda paydo bo‘lgan. Dastlab qog‘ozni tut daraxti po‘stlog‘idan tayyorlashgan. Yevropaliklar qog‘ozni matolardan tayyorlaganlar. XIX asrga kelib qog‘ozni yog‘ochdan tayyorlay boshladilar. Birinchi bosma uskunani buyuk nemis novatori Iogann Guttenberg ixtiro qilgan. Bu ixtiro kitoblarni yaratish jarayonini tezlashtirish va arzonlashtirish imkoniyatini berdi.


Ming yildan ortiq vaqt mobaynida o‘z faoliyatini san’at darajasiga yetkazgan samarqandlik hunarmand-qog‘ozgarlar dunyoda eng yupqa, silliq hamda siyohni ko‘p shimmaydigan, o‘ta chidamli noyob qog‘oz turlarini ishlab chiqarish texnologiyasini yaratishdi. “Samarqand qog‘ozi” nomi bilan dunyoga tanilgan ushbu mehnat mahsuli Buyuk ipak yo‘lida eng ko‘p xarid qilinadigan noyob tovarga aylandi.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi esa elektron kitoblar paydo bo‘lishi va ommalashishiga olib keldi.



Savollarga javob bering

1. Siz foydalanayotgan kitoblar qanday qog‘ozdan tashkil topgan?
2. Samarqand qog‘ozi Buyuk ipak yo‘lida eng xaridorgir tovar bo‘lishiga sabab nima deb o‘ylaysiz?
3. Elektron kitoblarning qanday afzal tomonlari bor?



Savollarga javob bering



1-topshiriq.

1. Nega odamlar kitob yaratishga qaror qildilar?
2. Chop etish uskunasi paydo bo‘lganligi sababli kitoblar ko‘paydi va ular arzonlashdi. Mazkur kashfiyot yana nimalarga ta’sir etdi?

Diqqat bilan o‘qing



“Yosh kitobxon” tanlovining 15–19 yosh toifasi bo‘yicha Respublika bosqichida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Kegeyli tumanidagi 9-ixtisoslashtirilgan davlat umumta’lim maktabi 10-sinf o‘quvchisi Kokanova Nursulu mutlaq g‘oliblikni qo‘lga kiritdi va Prezident sovg‘asi – “Spark” avtomobili bilan taqdirlandi. Mazkur bosqichda “O‘zbek adabiyoti bilimdoni”, “Jahon adabiyoti bilimdoni”, “Buyuk mutafakkir va adib” hamda “She’riyat” kabi shartlar bo‘yicha bellashildi.



Kokanova Nursulu:

“Kitob – eng yaxshi do‘st, eng kuchli tarbiyachi ekanini angladim. O‘zimda ma’naviy ulg‘ayishni his qildim. Bu kabi tanlovlar tashkil etilishi yoshlarni bilim olishga, kitob bilan do‘stlashishga o‘rgatadi”.



Bu qiziq!

Kutubxona assotsiatsiyalari va muassasalari Xalqaro Federatsiyasi ma’lumotiga ko‘ra, jahonda 569 mingdan ziyod kutubxonalar faoliyat ko‘rsatadi.

Mamlakatimizda ko‘plab kutubxonalar mavjud. Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxona o‘zbek tilidagi qo‘lyozma va chop etilgan asarlarning eng katta to‘plamiga ega.

Kitoblar me’morchilik, musiqa va san’at yodgorliklari bilan bir qatorda, madaniy merosning tarkibiy qismi hisoblanadi. Kitoblar ham ma’naviy qadriyat sifatida avloddan avlodga o‘tib keladi, bizni bilimlar bilan boyitib, ezgulik sari chorlaydi.








Topshiriqlarni bajaring



2-topshiriq.

1. Bizning mamlakatimizda kitob va kitob o‘qishga qiziqishni rivojlantirish uchun qanday choralar ko‘rilmoqda? Sizning bu tashabbuslarga munosabatingiz qanday?
2. Sevimli kitobingiz haqida gapirib bering. Bu kitob sizga nimani o‘rgatdi?

3-topshiriq. Partadoshingiz bilan birga bajaring. Eyler-Venn diagrammasidan foydalanib, quyidagi tushunchalar juftligini taqqoslang.



	A	B
1.	Kitob	Rivojlanish
2.	Tajribani yetkazish	O‘qish
3.	Kutubxona	Kitoblar ombori
4.	O‘qitish	O‘qish
5.	Yozuvchi	Shoir

4-topshiriq. Kitob nomidan hikoya tuzing. Hikoyangizda quyidagi kalit iboralardan foydalaning: Men kitobman. Men o‘zimni … uchun yaxshi ko‘raman. ... bo‘lganida men xafa bo‘laman. Men ... juda xohlardim.

www.idum.uz

MUNDARIJA

I bob. Men fuqaroman 4
1–2-mavzu: Vatanga muhabbat 4
3–4-mavzu: Biz o‘z xatti-harakatlarimiz uchun javobgarmiz.....8
5–6-mavzu: Insonning huquq va majburiyatlari.....16
7–8-mavzu: Ona tabiatni asrash – bizning burchimiz.....23

II bob. Men insonman.....30
9-mavzu: Bir-birimizni tushunishni o‘rganamiz.....30
10-mavzu: Mehr qadri 34
11-mavzu: Ezgu orzular ro‘yobi.....38
12-mavzu: Maqsadim – mening ishtiyoqim 42
13–14-mavzu: Har bir inson hurmatga loyiq 47

III bob. Men va mening do‘stlarim.....53
15-mavzu: O‘zgalarga yordam berib, o‘zingda insoniylikni kashf et..... 53
16-mavzu: Hamkorlik – muvaffaqiyat garovi 58
17–18-mavzu: Jonivorlarga g‘amxo‘rlik qilish..... 62
19–20-mavzu: Xulq-atvor qoidalari – hayot tarzi..... 70
21–22-mavzu: Sog‘lig‘imiz – boyligimiz..... 78

IV bob. Men va mening ajdodlarim 85
23–24-mavzu: Xotira – abadiy, qadr – muqaddas 85
25–26-mavzu: Merosimiz – faxrimiz.....92
27–28-mavzu: Milliy an’ana va qadriyatlarimiz.....99
29-mavzu: Kitoblarda olam sirlari.....106

O‘quv nashri

**Muhammadjon Quronov, Yuliya Risyukova, Oksana Tigay,
Olesya Usmanova, Sanjar Xafizov**

Tarbiya

*Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining
5-sinf o‘quvchilari uchun darslik*

Rassomlar: *N. Jo‘raboyev, A. Jabborov*
Muharrirlar: *J. Yaxshiboyev, N.Nishonboyeva*
Badiiy muharrir *I. Yo‘ldoshev*
Texnik muharrir *T. Xaritonova*
Musahhihlar: *M. Ibragimova, D. To‘ychiyeva*
Sahifalovchi *H. Sharipova*

Nashriyot litsenziya raqami AI № 290. 11.04.2016.
2020-yil 6 noyabrda bosishga ruxsat etildi. Bichimi 60x84 1/8.
Kegli 12 shponli. Arial garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi.
13,02 shartli bosma taboq. 9,6 nashr tabog‘i.
Adadi 562028 nusxa. ___ raqamli buyurtma.

Dizayn konsepsiyasi va uslubi bosh pudratchi Kolorpak
MCHJ tomonidan ishlandi.

COLORPACK
время ярких решений

G‘afur G‘ulom nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
100128. Toshkent. Labzak ko‘chasi, 86.

www.gglit.uz **info@gglit.uz**

Ijaraga berilgan darslik holatini ko‘rsatuvchi jadval

№	O‘quvchining ismi va familiyasi	O‘quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbari-ning imzosi	Darslikning topshirilgan-dagi holati	Sinf rahbari-ning imzosi
1						
2						
3						
4						
5						
6						

Darslik ijaraga berilib, o‘quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to‘ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko‘chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo‘q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta’mirlangan. Ko‘chgan varaqlari qayta ta’mirlangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqova chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo‘q, qoniqarsiz ta’mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo‘yab tashlangan. Darslikni tiklab bo‘lmaydi.